

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI



“FOLKLOR IJROCHILIK SAN’ATI TARIXI”
fanidan
MA`RUZALAR MATNI

Tuzuvchi: fil.f.d.,prof.J.Eshonqulov

Toshkent-2018

BIRINCHI MAVZU

MUSTAQILLIK DAVRI FOLKLOR TARAQQIYOTI VA IJROCHILIK SAN'ATI

Reja:

- 1. Mustaqillik davrida folklor san'atining yangi mazmun va mohiyat kashf etishi.**
- 2. Folklor milliy ma'naviyatimizning asoslaridan biri sifatida.**
- 3. Mustaqillik davrida folklor san'ati taraqqiyoti.**
- 4. Bugungi kun o'zbek folklorshunosligi.**

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib, yangilanib, xalq madaniyati, ma'naviyatini o'z mazmunida ifodalab kelayotgan bebaho merosimiz hisoblanadi. Shuning uchun ham Prezidentimiz I.A.Karimov: «Xalq, millat o'z milliy ma'naviyatini yillar, asrlar davomida yuksaltirib, boyitib boradi. Chunki, ma'naviyat qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas, aksincha, doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo'lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma'naviy hayot oldiga qo'yiladigan talablar ham muttasil paydo bo'laveradi»¹, – deb alohida ta'kidlagandi. Darhaqiqat, milliy qadriyatlarni hamisha qadrlash, ularni har tomonlama o'rganib, ilmiy tadqiqotlar obyektiga aylantirish folklorshunoslikning ustuvor vazifalaridan biridir.

O'zbek folklorshunosligida xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash, chop qilish va tadqiq etish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Folklor janrlaridan ertak, naql-maqol, topishmoq, aytishuv va dostonlar alohida monografik tarzda tadqiq obyekti bo'ldi.

Bugungi kunga qadar xalq og'zaki ijodi tarixi, nazariyasi va amaliyoti masalalari yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Folklorshunoslikka oid ilk qaydlar XI asrning ulug' tilshunosi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida mavjuddir. Shuningdek, Narshaxiy, Rabg'uziy, Alisher Navoiy, Bobur, Shayx Sulaymon Buxoriy, Abulg'oziy kabi shoir va olimlar ham folklor namunalarini yozib olib, o'z asarlariga kiritishga muayyan hissa qo'shganlar.

XX asrning 20-yillarida atoqli olim Hodi Zarifovning fundamental tadqiqotlari bilan o'zbek folklorshunosligining nazariy asoslari yaratildi va badiiy merosni o'rganishga bag'ishlangan bu yo'nalish alohida mustaqil fan sifatida shakllandi.

O'zbek folklorshunosligi ko'p tarmoqli fan yo'nalishi bo'lib, hozirgi kunda uning eposshunoslik, ertakshunoslik, qo'shiqshunoslik, musiqa folklorshunosligi kabi bir qator fundamental tadqiqot yo'nalishlariga ega. Shuningdek, hozirga qadar mifologiya va qadimgi davr folklori, o'zbek folklorining tarixiy taraqqiyoti, marosim folklori, bolalar folklori, xalq lirikasi,

¹ Каримов Ислон. Юксак маънавият – енгилмас куч . – Тошкент:Маънавият, 2008. – Б.171.

folklor va yozma adabiyot munosabati, o'zbek folklorining epik janrlar tizimi, xalq dostonchiligi, dostonchilik maktablari va ularning epik an'analari, turkiy xalqlar folklorining o'zaro aloqalari va folklorda janrlararo munosabatlar, og'zaki teatr va xalq tomosha san'ati, xalq musiqasi va an'anaviy raqs san'atini o'rganishga doir qator tadqiqotlar silsilasi yuzaga kelgan. Atoqli olim H.Zarifov asos solgan o'zbek folklorshunosligi maktabining M.Afzalov, B.Karimov, M.Alaviya, Z.Husainova, M.Saidov, J.Qobulniyozov, O.Sobirov, R.Muhammadiyev, H.Razzoqov, T.G'oziboyev, T.Ochilov, A.Qahhorov, M.Murodov, X.Egamov, G'.Akramov kabi xassos vakillari xalq og'zaki badiiy ijodiyotining turli janrlariga oid materiallarni to'plab, sistemalashtirish, nashr etish va tadqiq qilish borasida katta ishlarni amalga oshirdilar. Bugungi kunda professor T.Mirzayev yetakchilik qilayotgan bu ilmiy maktabning K.Imomov, O.Safarov, S.Ro'zimboyev, B.Sarimsoqov, G'.Jalolov, M.Qo'shmoqov, A.Musaqulov, M.Jo'rayev, SH.Turdimov, J.Eshonqulov kabi tadqiqotchilari yaratgan ilmiy asarlar folklorshunoslikni yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tardi.

O'zbek folklorshunoslari xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini to'plash va tadqiq etish bilan shug'ullanibgina qolmasdan, folklor namunalarini nashr qilish borasida ham salmoqli natijalarga erishdilar. «O'zbek xalq dostonlari» silsilasida nashr etilgan qator epik asarlar, «O'zbek xalq ijodi» ko'pjildiligining qirqqa yaqin tomlari chop ettirilganligi, shuningdek, o'zbek xalq maqollarining ikki jildlik akademik nashri, «Alpomish» dostonining akademik nashri, keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan ko'plab alohida nashrlar buning yaqqol dalilidir.

Biz yangi asr ostonasida turibmiz. Yuz yilliklar avvalida odatda jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida juda katta o'zgarishlar bo'ladi, tafakkurda, ongda yangilanish yuz beradi. Bu yangilanish o'z-o'zidan bo'lmaydi va osongina kechmaydi ham. Odatda bunday o'zgarishlarga o'zoq tayyorgarlik ko'riladi. Shuning uchun ham, XXI asrga kelib milliy qadriyatlarga, inson ma'naviyatiga bo'lgan e'tibor tabora ortib bormoqda.

Ma'naviyatimizdagi yangilanish jarayoni esa, shubhasiz, adabiy merosimizni, shu jumladan xalq og'zaki ijodini, uning badiiyati, mifologik qatlamini qay darajada o'zlashtirishimiz bilan belgilanadi. Biz bugun yangi adabiyot, to'g'rirog'i, chinakam adabiyot yaratishga harakat qilayotgan ekanmiz, eng avvala san'atga, adabiyotga zamin bo'lgan xalqimizning qadim mifologik tasavvurlarini yaxshi o'rganishimiz, tahlili va tadqiq etishimiz lozim bo'ladi.

Xalq ijodini o'rganish bu xalqning turmush tarzini, urfi-odatini, an'alarini, tarixini, buguni va kelajagini, o'yu kechinmalari va ruhiyatini o'rganish demakdir. Unda millatning o'zini bilish, anglash, o'zini namoyon etish xislatlari, urinishlari, xalqning ming yillik hayot tarzi, dunyoqarashi aks etgan bo'lib, oddiyroq tilda aytadigan bo'lsak, xalq ijodini o'rganish bu bevosita xalqning o'zini o'rganish demakdir. Xalq og'zaki ijodini anglash uchun esa og'zaki ijod, ya'ni baxshichilik san'ati haqida fikr yuritish lozim bo'ladi. Bu narsa bizga ijod sirini, uning yuzaga kelish holatini bilishda, badiiy meros badiiyatini chuqurroq talqin qilishda yordam beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. *Folklor milliy ma'naviyatimizning asoslaridan biri ekanligini tushuntirib bering.*
2. *Folklor san'atining mustaqillik yillaridagi ravnaqiga misollar keltiring.*
4. *Mustaqillik davri ijro san'atining o'ziga xosligi haqida so'zlab bering.*
3. *Bugungi kun o'zbek folklorshunos olimlarini sanab bering.*

IKKINCHI MAVZU FOLKLOR IJROCHILIK SAN'ATI TARIXI VA UNING O'RGANILISHI

Reja:

1. *Folklor san'atining tarixiy ildizlari va mazmun mohiyati.*
2. *Folklorda tur va janlar ularning o'ziga xosligi.*
3. *Ijro san'atining janrlarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi.*

Folklor (*ingl.* folk – xalq, loge – donolik so'zlaridan) – folklor, xalq og'zaki badiiy ijodi. Folklor termini hozir xalqaro miqyosda keng tarqalgan bo'lib, G'arb mamlakatlarida xalq og'zaki badiiy ijodining turli sohalarini: og'zaki poeziya, xalq muzikasi, xalq raqsi, halq naqqoshligi, og'zaki nasriy asarlar, xalq urf-odati va rasm-rusmlari, e'tiqodi bilan bog'liq asarlarni ifodalaydi. Turkiy xalqlarda folklor termini xalqning og'zaki poetik ijodini, shuningdek, xalq qo'shig'i, muzikasi va raqsini anglagadi. Shuning uchun bu termin bilan birgalikda xalq poetik ijodi, xalq og'zaki ijodi terminlari teng qo'llaniladi. XX asr boshlarida folklor atamasi o'rnida «og'iz adabiyoti», «el adabiyoti», «og'zaki poeziya» kabi atamalar qo'llanilgan. Folklor o'ziga xos san'at turi bo'lib, qadimda u miflarga o'xshash sinkretik xarakter kasb etgan. Keyinchalik unda so'z san'ati yetakchilik qilishi natijasida sinkretlilik xususiyati xalq qo'shiqlarida, do'mbira ijrosida aytiluvchi dostonchilik san'atida va ayrim mavsum-marosim yoki bolalar folkloridagina saqlanib qolgan. Yozuv paydo bo'lgunga qadar folklor og'zaki nutq imkoniyatlari asosida yashab, taraqqiy etib keldi. Yozma adabiyot asarlarini janrlarga bo'lganda, eng muhim belgi sifatida poetik sistemaning mushtarakligi nazarda tutilsa, folklor asarlarini janrlarga ajratishda ularning uch xususiyati: a) poetik sistemaning mushtarakligi; b) asarning maishiy-hayotiy funksiyasi; v) ijro xarakteri nazarda tutiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, folklor janrlari to'rt turga bo'linadi: 1. Lirik tur – xalq qo'shiqlarining barcha janrlari. 2. Epik tur – doston (yoqutlarda olonxo kabilar), ertak, hikoya, latifa, tarixiy qo'shiq, rivoyat, afsona va hakoza. 3. Dramatik tur – og'zaki dramalar, askiya, lapar aytishuvlar, masxarabozlik, qiziqchilik va boshqalar. 4. Maxsus tur – xalq donoligining ifodasi bo'lmish xalq maqollari, hikmatli so'zlar, topishmoqlar.

Folklor janrlari va ifoda vositalari qadimiy bo'lib, ular tarixiy taraqqiyotda o'zgarib boradi. Folklor asarlari xalq hayotini, xalq manfaatiga bog'liq tarixiy

voqealarni aks ettiradi. Unda badiiy to'qima va xalq fantaziyasi katta o'rin tutadi. Taraqqiyot jarayonida folklorning u yoki bu janrlari o'lib, uning o'rniga yangilari yuzaga kelib turadi. Bu bevosita xalq hayoti, uning hayotiy estetik ehtiyoji bilan bog'liq holda yuz beradi. Shuning uchun ham folklor yoki xalq og'zaki badiiy ijodi terminlarida «xalq» so'ziga alohida urg'u beriladi va bu narsa bevosita ijodning sotsial mohiyatini belgilab beradi. Demak, aytish mumkinki, xalq ijodi hamma vaqt ham umuminosniy ahamiyat kasb etadi. Chunki u xalqning orzu-umidlarini, intilish va qiziqishlarini aks ettiradi.

Folklorning yozma badiiy adabiyotdan farqli jihatlaridan biri uning og'zaki yaratilishi va tarqalishi, yashashi va reallashuvidan tashqari, ijodning kollektiv xarakterida bo'lishi hamdir. Folklorning bu xususiyati juda qadimgi zamonlar, ya'ni shaxsning urug', qabiladan ajralib chiqmagan bir payti bilan bog'liq bo'lib, u keyinchalik ham saqlanib qolgan. Kollektiv ijod tushunchasi yana shu bilan izohlanadiki, garchi asar u yoki bu iste'dod egasi tomonidan yaratilsa ham, biroq u asar kollektiv qiziqishini, g'oyasini va idealini aks ettiradi. Qolaversa, har bir asar ko'pchilik tomonidan ijro etilib, umumiy an'anaviy poetik shaklga kelib qoladi va natijada uning konkret yaratuvchisini topib bo'lmaydi. Shunday qilib, folklor asari ko'pchilik, ya'ni kollektiv mulkiga aylanib qoladi.

Folklorga xos xususiyatlardan biri ijodning kuchli an'anaviylik doirasida bo'lishidir. Bu an'anaviylik folklor asarlari tekstidan tortib, syujet barqarorligi, obraz va motivlarning ko'chib yurishi, badiiy shaklning nisbiy turg'unligi kabilarda namoyon bo'ladi. Chunki folklordagi an'anaviylik nisbatan turg'un bo'lib, u biror ijtimoiy formatsiya kishilariga xos estetik qarashlar darajasi bilan bog'liqdir. Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, kishilarning estetik qarashlaridagi rivojlanishlar bilan bog'liq holda folklordagi an'anaviylikda ham o'zgarish yuz beradi. An'anaviylik folklor asarlarining og'izdan-og'izga ko'chib yurishiga, turli ijrochilarning biror asarni og'zaki o'rganib olishi va ijro etishiga imkon beradi. Biroq folklordagi an'anaviylik o'z tabiati bilan novatorlikni inkor etmaydi. Chunki folklor kuchli an'anaviylik doirasida og'izdan-og'izga o'tib ijro etilsa ham, biroq har bir ijodkor unga o'z ulushini qo'shadi, o'zining badiiy didi, mahorati bilan bog'liq holda turli o'zgarishlar kiritadi. Oqibatda folklor asarlariga xos variantlilik va versiyalilik xususiyati kelib chiqadi.

Dunyo xalqlari yoki ayrim guruh xalqlar og'zaki ijodida syujet, motiv, obraz yoki poetik shaklda o'xshashliklar mavjud. Folklordagi bunday tipologik xususiyatlar shu xalqlarning ijtimoiy hayot, ong taraqqiyotining darajasi bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Agar tipologik hodisalar til xususiyatlari, etnik jihatlar bilan bir-biriga qardosh xalqlar (masalan, turkiy xalqlar) o'rtasida yuz bersa, genetiktipologiya hisoblanadi. Bir-biriga genetik jihatdan aloqasi bo'lmagan xalqlar o'rtasidagi tipologik hodisalar esa bevosita shu xalqlar hayotidagi siyosiy-iqtisodiy, madaniy saviyaning bir xil darajasi, o'zaro madaniy aloqa yoki ta'sir natijasida yuzaga kelishi mumkin. Tipologiyadagi bunday holat tarixiy-madaniy hodisadir. Biroq tipologik hodisa qay darajada bo'lmasin, xalq ijodi hamma vaqt o'ziga mustaqil bo'ladi. Shuning uchun har bir xalq folklori o'ziga xos janrlar sostavi, poetik sistema, obrazlar dunyosi, she'r shakli kabilarga ega.

Folklor o'z mohiyati jihatidan muhim tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyat kasb etadi. Chunki folklorda xalqning maishiy turmushi, dunyoqarashi, falsafiy dunyosi, intilishi, qiziqishi, ruhiyati to'la aks etadi. Bundan tashqari, folklor asarlarida tabiatning go'zal tasvirlari, hayotiy lavhalar, mohirlik bilan yaratilgan obrazlar mavjudki, ularni o'rganish badiiy-estetik tajriba uchun foydalidir. Folklor asarlari inson ma'naviy dunyosini boyitadi, undagi badiiy didni o'tkirlashtiradi.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Folklor va folklorshunoslik deganda nimani tushunasiz?*
- 2. Folklorning o'rganilishi qaysi davrlarga borib taqaladi?*
- 3. Folklorshunos olimlarning qaysi tadqiqotlari bilan tanishsiz?*

UCHINCHI MAVZU BAXSHI – FOLKLOR ASARLARI IJROCHISI

Reja:

- 1. Folklor ijrochilik san'atining tarixiy ildizlari.***
- 2. Baxshi - folklor asarlari ijrochisi.***
- 3. Ijodkor baxshi va ijrochi baxshi.***

Baxshichilik, ya'ni epik an'ana avlodlardan avlodga o'tib, asrlar osha og'zaki ravishda saqlanib kelgan san'atdir. Baxshi o'z epik xotirasida ana shu an'analarni saqlab, uni avlodlarga yetkazib kelgan va har gal ijro etilganda bu epik an'ana yanada boyib, yangilanib borgan. Ular epik bilim va epik xotiraning merosxo'rlari, asrovchilari edilar. Ajdodlardan meros qolgan bu epik xotirani ular o'z quvvai hofizasiga ko'ra ijro etganlar. Ijroni esa ular shubhasiz o'z ustozlaridan o'rganganlar, epik qoliplarga amal qilganlar, shu taxlit ular epos qonuniyatini yaratganlar.

Boshqa xalqlarda baxshilarni janrdan kelib chiqib nomlash ham mavjud. Qozoqlarda jirchi (jirdan), olonxochi (Olonxodan), uligerchi (Uligerdan), manaschi (Manasdan). Qadimgi Gretsiyada ham Aedlar bilan Rapsadlarni ajratishgan. Aedlar shoir bo'lishgan, rapsadlar esa ijrochi. Xuddi mana shuning o'ziyoqhar bir ijrochi o'zi bir olam ekanligi, o'z uslubi, o'z ohangi, o'z ta'bi, o'z mahoratiga ega ekanligini, ularga umumiy bir nuqtai nazardan baho berib bo'lmashligini, ular alohida alohida urganilishga, tadqiq etilishga muhtoj ekanligini ko'rsatadi. Qolaversa, bugungi kunda jahon miqiyosidagi epos haqidagi, umuman adabiyot, san'at va ilmiy tafakkur haqidagi ilmiy izlanishlarda baxshi shoirlarning nafaqat bir millat va xalq taqdirida, balki bani insoniyat tarixida nechog'li muhim o'rin tutganligi o'z isbotini topmoqda. XXI-asr ostonasida esa dunyoning yetakchi mamlakatlarida yana o'z milliy qadriyatlariga, an'analarga, urf-odatlariga qiziqish tabora ortib bormoqda. Dunyoning eng yetakchi faylasuflari o'z asarlarini yana xalqning qadimiy

ananalariga bog‘lab o‘rganmoqdalar. Zero bir xalqni bilish uchun uning urf-odatlarini, an‘analarini, badiiy tafakkur na‘munasi bo‘lmish xalq ijodini yaxshiroq o‘rganish lozim bo‘ladi. Ana shu qatlamni bilmasdan turib xalqni bilib, tushunib ham, anglab ham bo‘lmaydi. Eng muhimi esa uning ertangi kuni, kelajagi haqida biron narsa deyish mushkul bo‘ladi. Shuning uchun ham ehtimol, XXI -asr butun insoniyat uchun milliy qadriyatlar va o‘zlikka qaytish asri bo‘ladi. Ehtimol, mana shuning uchun jonli epik ijro va baxshichilik san‘atiga qiziqish tabora ortib bormoqda. Baxshilar, ayniqsa baxshi shoirlar ustoz – shogirdchilik an‘analariga jiddiy qaraganlar. O‘zbek baxshilarining ko‘pchiligi o‘z ustozlari haqida deyarli so‘zlashmaydi. Ular o‘z qobiliyatlarini sir saqlaydilar yoxud ilohiyot bilan bog‘lashadi. Bunga sabab xalqimizning baxshilarni, epik ijodiyotni muqaddas deb bilishidadir.

Epik qatlam orasida baxshilarning o‘z san‘atini sirli –ilohiy egallaganligi haqida turli afsonalar mavjud. Bu hol faqat o‘zbek baxshilariga xos xususiyat emas, bu hol xalqaro miqyosda keng tarqalgan. Baxshi bu xudo tamonidan tanlangan odamdir. Hamma ham shomon bo‘lavermagani kabi, hamma ham baxshi bo‘lavermaydi. Ehtimol, mana shunga o‘xshash mifologik tasavvurlardan baxshilarning ilohiyot bilan bog‘lanishi haqidagi qarashlar paydo bo‘lgandir. Shu o‘rinda bir narsani aytib o‘tish lozim bo‘ladi. Birinchidan, baxshilar bilan bog‘liq bunday afsonalarining ko‘pchiligida baxshining xastalikka yo‘liqishi va bo‘lajak baxshining kasal bo‘lib qolishi va kasallikdan faqat kuylash orqali xalos bo‘lishi. Ikkinchi holat; baxshining o‘z tushiga qattiq ishonishi. Baxshi real voqelikka qanday ishonsa, o‘z tushiga ham, tush bilan bog‘liq afsonalarga ham chin haqiqat deb ishonadi. Xuddi tush kabi uning xayol dunyosi ham shu qadar keng, cheksiz-chegarasiz va bepayonki, uni faqatgina o‘zi kabi ijodkor odamgina tushunishi mumkin. Menimcha mana shu jarayon biz uchun muhim. Baxshidagi qobiliyatning tush bilan, ilohiyat bilan bog‘lanish sabablarini hâch kim aytib berolmaydi. Bu qobiliyat unga qanday keldi, nega aynan uni qiynaydi, azoblaydi? Baxshining o‘z qobiliyatini sirligicha egallashi qanchalar o‘rganilmasin baribir sirligicha qolaveradi. Baxshini, u yaratgan epik ijodiyot na‘munalarini urganar ekansiz siz o‘zingiz ham tabora bu sirga ko‘proq ishonch hosil qilasiz, bu maftunkor, sirli va sehrli dunyoning asiriga aylanasiz. Tasavvur qiling, yuz minglab misralarni yod bilish, uni istalgan paytda ijro etish va ijro etganda ham har gal yangidan ijro etish hamma san‘atkorga nasib etavermaydigan baxt. Bu tasavvurlar ehtimol, mifologik tasavvurlar mahsulidir?! Shomonning «o‘zga dunyo» «narigi olamga sayohati «ruhlar bilan muloqoti» haqidagi tasavvurlar mahsulidir. Bu biz uchun sirli, haqiqatdan uzoq afsonadek tuyuladi. Biroq buning haqiqat ekaniga baxshi ham, xalq xam ishonadi. Ana shu ishonch tufayli bu dunyoqarash bugungi kunga qadar yashab kelmoqda. Biroq, eng muhimi biror bir baxshi o‘z-o‘zidan, yoxud chetdan paydo bo‘lmaydi. Biror bir baxshini o‘rganish uchun u voyega yetgan muhitni o‘rganish lozim bo‘ladi. Chunki u ana shu epik muhitda katta bo‘ladi, voyega yetadi. Bo‘lajak baxshi o‘z tinglaganlarini, ko‘rgan kechirganlarini, his etganlarini, ruhiyatidagi tovlanishlarni asta –sekin o‘z xotirasiga joylay boradi.

Bizda ko‘plab «baxshichilik maktablari» mavjud bo‘lgan. Bu baxshilarni

tarbiyalab, voyega yetkazadigan biror bir joy haqida emas, balki o'z ijro usuli, mavzusi, epik repertuari bilan ajralib turuvchi baxshilarga aytiladi. Baxshichilikka o'qib-o'rgatib bo'lmaydi. Bu xudo tamonidan ato etilgan bir inoyatdir. Xalqimizning har bir so'zida musiqiylik mavjud. Erta tongdan turib, to quyosh botgunga qadar biz qo'shiq aytamiz. Bizning salomlashishimiz ham, xayrlashishimiz ham sigir sog'sak ham, uy supursak ham, yer haydasak ham, bahor, yoz, kuz kelsa xam, qor yomg'ir yog'sa ham, shamol tursa ham, issiqda ham, sovuqda ham biz qo'shiq aytamiz. Biz buni qo'shiq deb atamaymiz. Bu bizning oddiy so'zlashuvimiz. Biroq bu oddiy murojaatda musiqiylik bor, ma'lum tizim, ma'lum forma bor. Ehtimol xuddi mana shu muhit baxshi shoirlarning shakllanishida muhim rol o'ynar?

Bizda baxshi asosan ikki xil ma'noda: folbin va dostonlarni ijro etuvchi ma'nosida keladi. Baxshining folbin manosi qadimda baxshining shomonlik bilan bog'liq tasavvurlardan tug'ilganligini ko'rsatadi. Zero, qadimda baxshi, ya'ni shomon turli vazifalarni ado etgan. Baxshi bizda ko'proq doston ijro etuvchi so'z san'atkori sifatida ishlatiladi. «Baxshi bo'lib ket-ey» iborsi ham aslida so'zga chechanlikni nazarda tutadi.

Epik ijrochilarni toiflarga bo'lishda ham turlicha qarashlar mavjud. Biroq mazkur masalada aniq to'xtamga kelingani yo'q. Xo'sh, ularni qanday farqlash kerak? Bunga faqat baxshichilik maktablarini, har bir baxshining individual ijro usullari va ijodi yetarlicha o'rganib chiqilgandagina biz bu masalaga to'g'ri javob topishimiz mumkin.

Baxshi, baxshichilik san'ati haqida V.V. Radlov, CH.Valixonov, M.Auezov, H.Zarifov, T. Mirzayev, F.Ko'prili, A. Fitrat, A.Lord, B.Putilov va boshqa olimlarning asarlari mavjud.

Folklorshunos olim To'ra Mirzayev baxshilarni uch toifaga ajratadi: 1. Baxshi - ijrochilar. 2. Baxshi - improvizatorlar. 3. Baxshi – shoirlar.²

Menimcha, bu baxshilar haqidagi eng to'g'ri xulosa. Chunki, hamma baxshilar ham baxshi ijrochi, baxshi improvizatorlikdan chinakam baxshi shoir darajasiga ko'tarila olmaydilar. San'atning bunday yuksak cho'qqisiga Fozil Yo'ldosh, Ergash Jumanbulbul, Po'ltan kabi baxshilarimiz erishganlar. Shuning uchun ularni shoir deb atashganlar.

Ko'pgina tadqiqodchilar qahramonlik eposining epik qatlamda ham badiiy asar, ham tarixiy, ham estetik va amaliy bir asar sifatida qabul qilinishini yozadi. Qahramonlik eposi o'zining dastlab paytida mifologik marosim xarakterida edi. Davrlar o'tishi bilan bu epik ijodiyot o'zining dastlabki xususiyatlarni yo'qotish bilan birga uning ayrim jihatlarini o'zida saqlab qoldi. Qadim tasavvurga ko'ra eposni kuylash orqali tabiatga ta'sir qilish mumkin deb o'ylashgan. Baxshilar kuylar ekan, ular bevosita ruhlar bilan muloqatga kirishgan. Kasaliklarning oldini olish, tabiatga ta'sir qilish, qo'rg'oqchilikda suv surash, toshqinning oldini olish, urushda g'olib kelish, mul hosil yig'ish, ovda muvaffaqiyatlarga erishish, farzand ko'rish, boylikka egalik qilish bu hammasi baxshining vazifasiga kirgan. Baxshi odamlar bilan ruhlar o'rtasidagi vositachi

²Мирзаев Т. , -б. 60-71.

hisoblangan. Baxshi ikki dunyoni tutashtiruvchi ko‘prik bo‘lgan. Shuning uchun baxshining ijtimoiy mavqei shu qadar yukasak bo‘lgan. Ibtidoiy inson tasavvurida so‘z ilohiy hisoblangan. U harakat va og‘zaki ijroni asos qilib olgan. Harakat tanniki, so‘z esa ruhga, ruhiyatga tegishli deb o‘ylagan. So‘zga kishan solib, asir qilib bo‘lmaydi deyishgan. Shuning uchun ham yozuvga qiziqishmagan. Yozuv paydo bo‘lgunga qadar og‘zaki ijro o‘zining mukammal darajasiga yetgan. Ehtimol qadim marosimlarda takror va takror ijro etilgan duo va iltijolar tilimizdagi frazeologik birikmalarning, epik formulalarning yuzaga kelishiga asos bo‘lgandir. Shu tariqa Sanat va Magiya bir-biriga qorishib ketgan. Dastavval u bir-biridan ayro holda tasavvur etilmagan. Epik formulalardagi ramzlar, ohang va qat’iy tizim dastavval magik funktsiya bajargan bo‘lsa, davrlar o‘tishi bilan uning o‘rnini estetik funktsiya ola boshlagan. Shuning uchun ham baxshi haqida so‘z yuritganda bu san’atning shomonizm bilan bog‘liq ekanini anglash lozim bo‘ladi. Ehtimol shuning uchun Epik jarayon faqat shomonlik izlari yaxshi saqlanib qolgan xalqlardagina bugungi kunga qadar yashab kelayotgandir?! Baxshining:

Eshitganning ko‘nglida armon qolmasin,-

deya aytgan misrasida ham ana shunday magik-ritual tasavvur izlari mavjud. M.N. Xangalov buryatlarda tunda qo‘rqmaslik, yovuz ruhlardan saqlanish uchun Abay Geser Bogda xon haqidagi dostonni aytishlarini yozadi. Qirg‘iz jirchisi Keldibek kuylaganda osmonni qora bulut qoplagan, yer silkingan. Olonxochi Artaman kuylaganda odamlarini xushlaridan ayrilgan, daraxtlar qulagan. Xakaslar esa qaxramonlik qo‘shig‘i ruhlarga ta’sir qiladi, yer osti yovuz ruhlariga yetib boradi deb o‘ylashadi. Qurg‘oqchilik va harbiy urushlar payti epos kuylangan. Kupgina manabalar Eposning ov paytida magik funktsiya bajarganini yozadi. Buryatlarda uligerlar kuylansa ov yaxshi bulishiga halicha ishonishadi. Mug‘ullarda kasal bo‘lganlar «Geser», ya’ni mug‘ul eposini o‘qib tuzatishadi. Bizning baxshilarimiz esa ijro paytida ularga aziz avliyolar, eranlar ko‘mak berib turishini aytishadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, shomonlik marosimlarida epos ijro etilgan va ehtimol shuning uchun eposda shomonlik izlari, u bilan bog‘liq tasavvurlar yaxshiroq saqlanib qolgan.

Sibirda shomon ijrosi bilan baxshi ijrosi o‘zaro o‘xshash ekanligi kuzatilgan. Olmon eposshunosi K. Rayxl esa shunday bir fakti keltiradi: Ket shomonidan qahramonlik dostonini kuylab berishni iltimos qilishganda, u aynan shomon gimnini kuylay boshlagan.³

Baxshi ijro etyotgan epik matnda ham xuddi shomonlikdagi kabi aziz-avliyo va eranlarga murojaat qilinadi. Biz bilamizki, shomon asosan ruhlar bilan muloqatga kirishgan, uning ruhi u dunyoga safar qilgan, turli ruhlar qiyofasiga kirgan. Shuning uchun ham o‘z ijrosida u ana shular haqida, u dunyoga borgani, o‘lib –tirilgani va yana bu dunyoga qaytib kelgani haqida hikoya qilgan. Biz shunga o‘xshash holatni, biroz o‘zgarishga uchragan ko‘rinishini epik baxshilar ijodida ko‘ramiz. Ular ijro etgan dostonlar aslida shomonning nariga dunyo, o‘zga olamga qilgan sarguzashtini eslatadi.

³Райхл К.. Туркий хал=ларнинг =аҳрамонлик достони. –Анкара.: 2004 йил. –б. 122.

«Qizig'i shundaki- deb yozadi B.Putilov,- shomonlik matnlari xarakteri jihatidan baxshi matnlariga o'xshab ketishi kishini yanada hayratga soladi.Ular kuylagan matnlar shubhasiz epos na'munasidir.Biroq afsuslar bo'lsinki, shomonlik qo'shiqlari bilan epik ijro matnlari hali jiddiy tadqiq etilmagan.»⁴

Shomon va epik ijrochining makon va zamon, olam va odam haqidagi tasavvurlari,badiiy tasvir vositalridagi o'xshashlik ana shunday xulosaga kelishimizga asos bo'la oladi.Ko'pgina epik terminlarning shomonlik terminlari bilan o'xshash ekanligi ehtimol shundandir.Xalqimizda baxshi so'zining ikki ma'noda qo'llanishi ham fikrimizning dalilidir.

Evinklarda Nimngakan ham epik janrni, ham marosim ya'ni kamlamoq tushuniladi.Malayslardagi Pavang termini ham shomon,tabib, marosim ijrochisi sifatida keladi. Turkiy tildagi «Yumak», «Imak», «Numax» mug'ulcha «damag'» – ya'ni afsona, ertak, rivoyat, qadimgi turkcha « yom» – shomon hikoyasi ma'nosidadir. Xuddi baxshi kabi shomon o'z hohishi bilan bo'lolmaydi.Balki uni ruh tanlaydi.Shuning uchun u dastavval qattiq kasalga chalinadi.U ruhlar aytganini qilgachgina u darddan forig' bo'ladi.Shomon ham xuddi baxshi kabi o'z asboblarini tushida oladi.

Shomon ham ustozga shogird tushadi.Undan shomonlik marosim sirlarini o'rganadi.Asta-sekin marosimlarni o'zi boshqara boshlaydi.

Arxaik eposda shomonlik qatlami yaqqol sezilib turadi.Olimlar «Kalevala» eposining asosida shomonlik yotishini aytadilar.F.Oynas esa «Kalevala»ni shomonlik eposi sifatida talqin etadi

Alpomish» dostonida Alpomishning yetti yil zindonda yotib, uning haqida «o'ldi» degan xabar tarqalishi va uning zindondan so'ng qiyofasini o'zgartirib, yurtiga qaytishi beixtiyor shomonning narigi dunyoga safarini yodimizga soladi.

Qahramon Alpning narigi dunyoga safaridan maqsad magik qudratga ega bo'lib qayta tug'ilish, bir maqomdan ikkinchi bir maqomga ko'tarilishdir.Shu sababli turk, jumladan Oltoy shomonlarining hozirgacha saqlanib qolgan marosimlarida behushlikda o'zini chavaqlash,boshini kesib tashlash,tanasini tilka-pora qilish holatlari uchraydi.Shomonning bu holati shomonning bir maqomdan ikkinchi bir maqomga o'tishdagi marosim bilan bog'liq bo'lib, tanani to'liq inkor etib, ruh bilan birlashishni bildiradi.Tanasini inkor etib , yangidan tug'ilgan,xomiy ruhlar quvvatini o'zida jamlay olgan shomonga dunyoni yangilash, yangidan qurish imkoni beriladi.

Alpomish o'z yori Barchin qo'ygan shartlarni bajarib, sinovdan o'tib, birinchi maqomga ko'tarilgan bo'lsa, uning mastlik, ya'ni ruhiy behushlik tufayli yetti yil zindonda yotib, so'ng ozod bo'lishi ikkinchi maqomga o'tishini eslatadi.Birinchi sinov Alpomishning balog'otga yetganini bildirsa, ikkinchi maqomga erishish bilan u yurtga bosh bo'lish, saltanatga egalik qilish qudratini ifoda etadi.Qahramonning zindonda bandi bo'lib, so'ng qiyofa o'zgartirib o'z yurtiga qaytishi bu uning narigi dunyoga safar qilganidan, qayta to'g'èëib yuksak maqomga erishganidan dalolat beradi.Xush Alpomish nega aynan

⁴Путилов Б. Эпический сказитель.-М.:

Qultoy qiyofasiga kirdi? Dostonning o'g'iz versiyasida esa qahramon – Bamsi Beyrak dalli o'zon, ya'ni baxshi qiyofasiga kiradi. Bu yerda ochiq ishorat bor. Biroq Alpomish dostonining o'zbek variantlarida bunday ishorat yo'qqa o'xshab tuyuladi. Aslida esa Qo'ltoy qiyofasidagi Alpomishning Barchin bilan o'lan aytishuvi bizga ana shu sirni oshkor etadi. Dostonnin deyarli hamma variantlarida ham ana shu o'lan aytishuv bor. Biroq ana shu ulan aytgunga qadar Alpomish qiyofasi ochilmaydi. Aslida esa Alpomishni hamma tanib turadi. Qaldirg'och unga «Mening ko'zim o'yilmasa tanidim, Polvon akam minib ketgan chibordi» deydi. O'g'li Yodgor :

Qo'ltoy bo'lsang,

Bunday ishlar kelmas qo'lingdan ,

Kas'hal ketgan mening otam bo'lmasin,⁵ - deb otasini taniydi.

Onasi esa: Hoy deding bandi- bo'g'inim bo'shadi,

Sog' suyagim joy-joyidan bo'shadi,

Dovushginang Alpomishga o'xshadi,

Qo'ltoyman deb, bolam meni aldama, - deydi⁶.

Qozon boshida Yodgorga zug'm qilgan oshpazning qilg'ini ko'rib jahli chiqib, uning oldiga kelgan xotini eriga doshnom beradi:

Elga Yo'lbars oraladi bakovul,

Ertan senday sho'rli bundan o'tadi.⁷

Yodgorning qo'lida ilik bilan xursand yurganini ko'rib, sababini bilgan Barchin Alpomish kelganini darrov payqaydi:

Qo'ltoy bobong senga ilik berolmas,

Qo'ltoy bo'lib bolam otang kelgandi.⁸

Hàòto Alpomishning kamonini «Qultoy», ya'ni Alpomish otganda ham sir oshkor bo'lmaydi. Toki, Alpomish Barchin bilan o'lan aytishib uni yengmagunicha u Qultoy qiyofasida qolaveradi. Xuddi shu holat Alpomishning barcha variantlarida, og'uz versiyasida ham, Homerning «Odessiya» dostonida ham aynan uchraydi. O'zga yurtidan xizmatkorining qiyofasida qaytib kelgan Odisseyni ham xuddi Alpomish kabi otasi ham, o'g'li ham, xotini ham taniydi. Biroq Odissey xotiniga o'zlari biladigan sirni, ya'ni she'riy aytishuv, o'lan aytmagunga qadar sir ochilmaydi. Olimlar Homerning «Odissey» dostoni bilan «Alpomish» dostoni o'rtasidagi hayrotomuz o'xshashlikdan chuqur hayratga tushadilar. Biroq A. Lord Homerning baxshi ekanligini va «Odissey» ning xalq ijodi na'munasi ekanligini aniqlagach, bu masalaga ancha oydinlik kiritildi. Bilamizki, baxshichilik qadim-qadimdan to bugungi kunimizgacha bizda saqlanib qolgan. Bu san'at bizga chetdan kirib kelmagan. Bu san'atning bugungi kunimizga qadar bizda saqlanib kelinayotganligi ham buning dalilidir. Qolaversa, A. Lord o'zining «Baxshi» degan kitobida dadillik bilan Homerning «Illiada» va «Odessiya» dostonlari bilan «Gilgamesh» dostonidagi

⁵ Алпомиш., -б. 342.

⁶ Алпомиш., -б. 346.

⁷ Алпомиш., -б. 355.

⁸ Алпомиш., -б. 359.

o'xshashlik haqida gapirar ekan, Homerning davrida va undan oldinroqham yunonlarga osiyoliklar, jumladan shumerliklar ta'sir ko'rsatganligini yozadi. Shumerliklarning esa turkiy qavm degan farazlar ko'proq haqiqatga yaqin ekanligini esa biz ilgari aytib o'tgan edik.⁹ Agar «Alpomish», «Gilgamesh» va «Odessiya» dostonlari qiyosiy o'rganib chiqilib tadqiq etilsa bu masalaga yanada ko'proq oydinlik kiritilishi muqarardir.

Alpomishning o'z xotining to'yiga Qo'ltoy qiyofasida, Bamsi bayrakning dalli o'zon qiyofasida o'lan aytish holati bu mazkur eposning tarixiy ildizlari juda qadimga, shomonlik tasavvurlariga borib taqalishidan dalolat beradi. Homiy ruh qiyofasida qayta tirilgan shomon nafaqat jismoniy, balki magik qudratga ega ekanligini ham namoyish etishi lozim edi. Shuning uchun ham qadimda shomon va baxshi so'zlari bir manoni anglatgan.

Epos haqida so'z yuritishdan oldin baxshi va epik formula haqida, to'g'rirog'i, baxshichilik, baxshichilik an'analari haqida, og'zaki epik ijodiyot qonuniyatlari haqida so'z yuritish lozim bo'ladi. Zero, epik formula bu «inson badiiy tafakkurining yuksak bir namoyishi, to'xtovsiz oqib turuvchi poetik oqimdir.»

Bizning baxtimiz shundaki, juda ulkan bir madaniy merosga egamiz. Shu paytgacha baxshilarimizdan yuzlab dostonlar yozib olingan. Bunday ulkan meros hamma xalqqa ham nasib etavermaydi. Bu dostonlar hali ko'p bor tadqiq etiladi. Bizdagi baxshichilik maktablari ko'plab tadqiqotlarga mavzu bo'ladi. Hodi Zarifov, To'ra Mirzayev kabi ustoz olimlarimiz folklorshunoslikning maktablarini yaratdilar. Ular bir paytlar ko'targan masalalar, hali o'zoq yillar urganilishi, tadqiq etilishi muqarardir.

Bugun dunyoning ko'pgina folklorshunoslari Hodi Zarifovning atoqli olim V. Jirmunskiy bilan birgalikda yozgan «O'zbek qahramonlik eposi» asariga suyanib ish ko'radilar. Hodi Zarifovning xalq og'zaki ijodi na'munalarini yozib olish, nashr etish va tadqiq etish borasidagi tekshirishlari, ilmiy xulosalari o'z davri uchun ham, bugun ham juda katta ahamiyatga egadir.

To'ra Mirzayevning «O'zbek baxshilarining epik repertuari» va «Alpomish» dostonining o'zbek variantlari» risolalarida juda katta masalalar ilgari surildi. Bu asralardagi yetakchi ilmiy xulosa va farazlar hali ko'pgina tadqiqotlarga mavzu bo'la oladi. Endilikda mazkur risollarda tilga olingan yo'nalishlarning ha'd birini alohida mavzu qilib o'rganiladigan payt keldi. Zero, jahon eposshunosligida shov-shuv bo'lgan, mutaxassislar tomonidan nodir asar sifatida e'tirof etilayotgan ikki risola: A. Lord va B. Putilovlarning baxshichilik san'atiga bag'ishlangan kitoblari shuni ko'rsatdiki, bizning olimlarimizning kitoblarida keltirilgan ilmiy xulosalar eposshunoslikda juda muhim ahamiyatga ega ekan.

Odatda biz folklor haqidagi nazariy xulosalarimizni, chetdan, biror bir G'arb olimining kitobidan olamiz. Bu nazariy xulosalarni o'zimizning matnlarga moslashtirishga harakat qilamiz. To'g'ri, folklor haqidagi umumnazariya asosan barcha xalqlarning folkloriga ham tegishli. Biroq, biz

⁹Эшонкул Ж. Фольклор: образ ва талқин. –Насаф, 1999 йил.

suyangan o'sha G'arb folklorshunoslari asosan bizning ya'ni turkiy xalqlarning og'zaki ijodi, o'z olimlarimizning nazariy xulosalariga tayanganlarki, buni biz endi- endi tushunayapmiz. Qolaversa, folklor haqidagi har qanday nazariy xulosa, jonli ijroga asoslanishi, bevosita asl matndan kelib chiqmog'i lozim. Hodi Zarifov, To'ra Mizayev kabi ustoz olimlarimizning yutug'i ham shunda.

Bugun bizda jonli ijroning, baxshichilik maktablarining saqlanib qolganligi ham bizga katta imkoniyatlar beradi. Ikkinchi hol esa jonli ijro variantlarining turli nashrlarining yuzaga kelayotganligidir. Bir dostonning bunday turli versiya va variantlarga ega bo'lishi ajoyib xodisadir.

Baxshiga hamma zamonlarda munosabat yuqori bo'lgan. Ular hech qachon daromad yoxud foyda uchun kuylashmagan. To'g'ri, ular do'mbirani olib yurt kezgan. Biroq buni boyish uchun emas, balki o'z kasbiga mehri tufayli deb tushunmoq lozim. Epos hamisha halqning badiiy tarixi bo'lib, unda xalqning qahramonlik ruhi aks etgan bo'ladi. Shuning uchun ham epos ma'lum bir toifa, bir guruh, bir qatlam eposi emas, balki umumxalq ijodi sifatida namoyon bo'ladi.

Baxshi so'zi turli davrlarda turlicha ma'nolarni ifodalab kelgan. Ba'zilar bu so'zni chin tilidagi fo-she (din o'rgatuvchi, ruhoniy, kohin), so'zidan, ba'zilar bilimli, o'qimishli so'zidan olinganini yozadi.

V. V. Radlov esa bu so'z turkcha «qam» so'zidan olingan degan qat'iy xulosaga keladi. Haqiqatdan ham, bugun turkiy tillarda «qamlamoq», yani «boqtirmoq», «qoqtirmoq» so'zlari ishlatiladi. Bu folbinga qaratmoq, davolatmoq, marosim o'tkazmoq ma'nolarini beradi. Mahmud Koshg'ariyning «Devoni Lug'otit turk» kitobida qam – fusungar, kohin ma'nosida kelishi aytiladi. Fiod Ko'pruli o'zining bir maqolasida eski uyg'ur matnlarida baxshi so'zi kohin, rohib, so'zini anglatganini yozadi va «baxshi» so'zi «bhikshu» so'zidan olingan degan taxminni aytadi. Qadimda kohinlikni ham, folbinlikni ham, jarrohlikni ham, hakimlikni ham bir kishi, ya'ni shomon bajargan.

Ko'pgina tarixiy manbalar tarixda baxshilarning nufuzi, martabalari hamisha baland bo'lganligidan dalolat beradi.

Islom madaniyati kirib kelgandan so'ng esa shomonlik bilan aloqador tasavvurlar asta sekin unutila borib, baxshi deganda ko'proq turk va mug'ul adabiy tillarini tushuna oladigan kotib, ma'lumotli, ziyoli kishini anglata boshlagan.

Amir Temur hukmronligi davrida Davlatshoh baxshi degan baxshi haqida Yazdiy malumot beradi. «Akbnoma»da esa Mirbaxshi degan bosh baxshining nomi tilga olib o'tiladi. «Qutadg'u bilik», «Hibatul haqoyiq», «Merosnoma», «Tazkiratul avliyo» kabi adabiy merosimizning nodir na'munalari ham «baxshi» deb ataluvchi kotiblar tamonidan bitilgan.

Keyingi davrlarga kelib esa baxshi deganda soz, ya'ni biror bir cholg'u asbobi bilan doston kuylovchi ijodkorlar tushunila boshlagan.

Bizda teatrni chetdan kirib kelgan degan tasavvur mavjud. Vaholanki, baxshi bu teatr: bir aktyor teatri. Bundan mukammal va qadimiy teatrni topish mushkul. Shunday ekan, teatr bizga chetdan kirib kelgan degan qarash bahsli.

Baxshining ijro paytidagi holati, turli imo ishoralar, ijroga uyg'un harakatlar qilishi, his hayojonga berilishi bu uning aktyorlik mahoratidan dalolat beradi. Baxshi ijro payti doston mazmunidan kelib chiqib bir dostonni turli ohangda kuylagan. Qahramonlarning emotsional holatini berish uchun o'zini ham shu holatga moslagan.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Epik ijodkor so'ziga ta'rif bering.***
- 2. Baxshi va shomon tushunchalarini izohlab bering.***
- 3. Ijrochi va ijodkor baxshini taqqoslang.***
- 4. Baxshining ijro mahoratini belgilovchi omillarni ko'rsatib bering.***

TO'RTINCHI MAVZU DOSTON IJROCHILIK SAN'ATI

Reja:

- 1. Ijrochilik san'atida xalq dostonlarining tutgan o'rni.***
- 2. Dostonchilik san'ati va «Go'ro'g'li» dostoni ijrosi.***
- 3. «Go'ro'g'li» dostonlari turkumlari va variantlari.***

Ijrochilik san'ati og'zaki tarzda ijro etib kelinayotgan, ajdodlardan avlodlarga og'zaki tarzda meros bo'lib kelayotgan dostonlarning alohida o'rni bor. Xalq dostonlarining yuzaga kelishi davri qadimiy ekan, demak uning dastlabki ijro holati bevosita marosim bilan bog'liq. Doston nima degan savolga, og'zaki o'zlashtirilgan, og'zaki ijro etilgan va og'zaki tarzda meros qoldiradigan epik ijodi namunasidir. Demak, dostonchilik san'ati taraqqiyoti bevosita ijro jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Oldingi kurslarda doston va uning turlari, «Alpomish» dostoni va uning badiiyati borasida atroflicha fikr yuritilgan edi. Bu mavzuda esa bevosita doston ijrochilik san'atini «Go'ro'g'li» turkum dostonlari misolid yoritib berishga harakat qilamiz.

Ma'lumki, «Go'ro'g'li» dostonlari, Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqda juda keng tarqalib o'zbek, turkman, qozoq, tojik, tatarlarda Go'ro'g'li, Ko'ro'g'li, Karo'g'li, Gurguli ozarbayjon, turk, qirim tatar, arman, gruzin, va boshqalarda Ko'ro'g'li nomi bilan shuhrat qozongan.

“Go'ro'g'li” turkumi dostonlari kattakon ikki tarmoqqa bo'linadi. Markaziy Osiyo (o'zbek, qozoq, turkman, tojik va boshqalar) versiyasi, Zakavkazye va Yaqin Sharq (ozarbayjon, turk, arman, gruzin, va boshqalar) versiyalari. Bu ikki tarmoq o'zaro jiddiy umumliklarga ega bo'lsa-da, dostonlarda qamrab olingan voqelik, epik an'ana va bosh qahramonga berilgan

baho jihatidan ularning hajmi, tarkibi, kuylanishi va tarqalishi xususiyatlari bilan ham bir-biridan keskin ravishda farq qiladi.

Zakavkazye va Yaqin Sharq versiyalariga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar ozarbayjon variantlarida to'la o'z ifodasini topgan. Unda tasvirlanishicha, Ko'ro'g'li 40 yigitga bosh bo'lib, kutilmaganda savdogarlar karvonini talaydi, o'ziga dushman bo'lgan qo'shni podsholiklarni yengib, bunday janglarda ajoyib jasorat va qahramonliklar ko'rsatadi; cho'pon, otboqar, darbadar baxshi, duoxon, folbin qiyofalarida dushman ichiga kirib, tadbirkorlik bilan asir tushgan yigitlariga yordam beradi, o'ziga va yigitlariga ma'qul bo'lgan go'zalarni olib qochadi, Ko'ro'g'lining jasorati va mardliklari haqidagi bunday hikoyalar yarim tarixiy, yarim afsonaviy xarakterga ega. Turkiya sultoni yoki Eron shohlariga tobe bo'lgan yarim mustaqil podsholiklardagi turli xil saroy intrigalari, feodal hukmdorlari yashagan gavjum savdo va hunarmandlik shaharlaridagi hayot, katta karvon yo'llaridagi janglar ozarbayjon versiyasining tarixiy asoslari hisoblanadi va bu versiyaga ko'ra, Ko'ro'g'li Eron shohi Abbos I ning(1585-1628) zamondoshi qilib ko'rsatiladi.

O'rta Osiyo versiyalari, xususan, o'zbek variantlarida esa, umumlashtirish va ideallashtirishning juda yuqori darajasini ko'ramiz. Bunda qahramonona o'tmish konkret tarixiy voqealar aspetida emas, balki mislsiz romantik lavhalarda, xalqning beqiyos ideallari ko'lamida tasvirlanadi. O'zbek "Go'ro'g'li" dostonlarida hayot, xalq turmushi, tarixiy voqealik mavjud zamon yetishtirgan qahramonlar ko'tarinki romantik bo'yoqlarda, ideal badiiy tasavvurlarda, cheksiz obrazlar girdobida gavdalanadi. Ana shu bepoyon idellik va cheksiz romantika bu dostonlarni yanada real, hayotiy, xalqqa yaqin va davrga hamohang qilgan. Ularning hayotiy kuchi, realistik qudrati, badiiy estetik quvatining buyukligi ham shundadir. O'zbek dostonlarida Go'ro'g'li turkman va o'zbeklarning begi, qonuniy hukmdor, o'z xalqi, vatani uchun qayg'uruvchi va uni turli dushmanlardan himoya qiluvchi dono murabbiy, ko'plab xalq botirlarini tarbiyalab yetishtirgan yengilmas bahodir sifatida tasvirlanadi. Bosh qahramonga berilgan mana shu estetik bahodan kelib chiqib, epik Chambil yurtining azamat hukmdori Go'ro'g'lining bahodir qirq yigiti bilan birgalikda ona yerining xavfsizligi va ozodaligiga tahdid soluvchi qo'shni podsholiklarga qarshi olib borgan kurashi butun xalq harakati, ozodlik urushi tarzida namayon bo'ladiki, bu o'zbek eposidagi asosiy masaladir.

O'zbek xalqi Go'ro'g'li va uning yigitlari haqida "Kunlarim", "Go'ro'g'li", "Go'ro'g'libek – zo'r botir", "Armoning qolmasin", "Bormi jahonda", "Armonim qolmadi" kabi termalar bilan bir qatorda har biri ikki ming she'riy satrdan tortib, o'n-o'n ikki ming misrali (qariyb shuncha nasriy qism ham mavjud) ko'plab dostonlar yaratdi. Bu materiallarni qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatdiki, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari o'zbeklar orasida bir-biridan prinsipial ravshda farq qiluvchi ikki versiyada tarqalgan.

Bu versiyalarning biri Xorazm "Go'ro'g'li" dostonlari bo'lib, ular turkman versiyasiga juda o'xshash, ozarbayjon "Ko'ro'g'li" siga ancha yaqin turadi. Xorazm dostonlari syujet xarakteri, ijodiy uslubi va kuylanishi jihatidan jiddiy alohidalikka ega, ularning hajmi nisbatan ancha qisqa. "Go'ro'g'lining

do'rayishi", "Arab tanggan", "Gulruh pari", "Avaz keltirgan", "Avaz uylantirgan", "Avazning ozod etilishi", "Qirq minglar", "Bozirgon", "Kampir", "Xirmon dali", va boshqa dostonlar Xorazm "Go'ro'g'li" dostonlari turkumini tashkil etadi.

Xorazmdan bo'lak yerlarida tarqalgan "Go'ro'g'li" dostonlari esa, alohida bir mustaqil versiyani tashkil etib, o'zlarining hajman juda kengligi, "monumentalligi" bilan ajralib turadi. Har ikki versiyada bosh qahramonning umumiy faoliyati va bir qancha motivlarda o'xshashlik ko'zga tashlanadi. Ammo alohida olingan doston va syujetlarda o'xshashlik deyarli yo'q, ya'ni birida bo'lgan doston (masalan, "Xirmon dali") ikkinchisida, ikkinchisidagi (masalan, "Ravshan") birinchisida mavjud emas. Versiyalarning bu darajada mustaqil rivojlanganligi turkumning yaratilishi davri hamda yuzaga kelgan joyi va muhiti haqida jiddiy tipologik tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

XVI – XVII asrlardan boshlab Ko'ro'g'li va uning nomi bilan bog'liq dostonlar mashhur bo'la boshlagach, ilgaridan mavjud dostonlarga yangidan yaratilganlari ham qo'shib, Go'ro'g'li nomi atrofida turkumlasha boshlagan. Ilgarigi qahramon nomi ham Go'ro'g'li bo'lgan bo'lishi mumkin. Biroq qadimiy turkiy *go'r-ko'r* so'zining botir, mard, bahodir ma'nolari arxaiklashib, qahramonning g'ayritabiiy tug'ilishi motivi formalariga ham o'zgarishlar kiritilgan va qahramon nomi ham "go'rda tug'ilgan o'g'il" ma'nosini kasb etgan degan qarashlar mavjud. Shu bilan birga ayrim variantlarda "botir o'g'il" degan qadimgi ma'no ham parallel ravshda svqlangan. Turkumning so'nggi dostonining "Ero'g'li" deb atalishi buni tasdiqlaydi.

O'tmishda "Go'ro'g'li" dostonlarini kuylashda dong taratgan dostonchilar bo'lgan. XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida Sultonmurod shoir (Samarqand oblasti), Nishonota (Toshkent oblasti) kabi san'atkorlar "Go'ro'g'li" dostonlarining eng bilag'onlari hisoblanganlar. Biroq ulardan biror bir doston yozib olinmagan.

"Go'ro'g'li" turkumi xalq bohodirining ajoyib-g'aroyib holda tug'ilishini va bolaligini tasvirlovchi "Go'ro'g'lining tug'ilishi va bolaligi" dostoni bilan boshlanadi. Dostonda tasvirlanishicha Go'ro'g'lining bobosi To'liboy sinchi xizmatlaridan ko'ngli to'lgan Odilxon qizi Bibi Oyshani unga nikohlab beradi. Bulardan bo'lg'usi qahramonning otasi Ravshan tug'iladi. Taka-Yovmit yurtining doimiy dushmani Shohdorxonning navbvtdagi bosqinlaridan birida Ravshan, shuningdek Taka-Turkman begi – Jig'alixonning farzandlari Gajdumbek va Bibi Hilollar asir olinib, Zangar yurtiga keltiriladi. Zangarda Ravshan va Bibi Hilol tasodifan uchrashib, bir-birlarini sevib qoladilar va turmush quradilar. Bu orada Ravshanning sinchiligi xabari Shohdorxonga yetib keladi. Shohdorxon uni saroyga chaqirib, unga otlarini ko'rsatadi. Ravshan bular ichida tulpor yo'qligini aytib, holvachining otini maqtaydi. Achchig'langan xon Ravshanning ko'zlarini o'yib oladi. Ravshan ko'r ko'zining xuniga holvachining otini tilab olib, shu ot yordamida qaynakasi Gajdumbek bilan Yovmitga qochadi. Zangarda qolgan Bibi Hilol qornidagi olti oylik gumonasi bilan vafot etadi. Go'rda O'lik onadan bo'lajak qahramon tug'iladi. Cho'pon Rustam uyuridagi bir baytal uni emizadi va keyinchalik Rustam yordamida shu baytal

Yovmitga qochib keladi. Ko‘rinadiki, epos an‘anasiga ko‘ra, Go‘ro‘g‘lilining kelib chiqishi yuqori tabaqa bilan bog‘lansa-da, aslida u cho‘pon Rustam tarbiyasida voyaga yetadi. Bu bilan, bir tomondan, Go‘ro‘g‘lining yoshligidanoq xonlarga, feodallarga, saroy aristokratiyasiga qarshi tarbiyalanganligi ko‘rsatilsa, ikkinchidan, uning epik Chambil yurtining qonuniy hukmdori ekanligi har jihatdan asoslanadi.

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi va bolaligi” dostoni ko‘p planli asar bo‘lib, unda G‘irot biografiyasiga oid ham ajoyib ma‘lumotlar bor. Bu ma‘lumotlarga ko‘ra, qahramonni emizgan baytal bilan Xuroson ko‘lidan chiqib kelgan ayg‘irdan (“suv oti” dan) urg‘ochi qulun tug‘iladi. Bu qulun uch yashar bo‘lgach, Go‘ro‘g‘li rayxon arabning dong‘i chiqqan tulporidan nasl olishga harakat qiladi. Natijada uchinchi ot G‘irko‘k tug‘iladi. Go‘ro‘g‘li unga turli xil xayvonlarning sutini berib tarbiya qiladi. Go‘ro‘g‘li bilan G‘irot orasida juda ko‘p o‘xshashliklar bor: dostonda har ikkalasi ham uchinchi naslgacha tilga olinadi (To‘liboy – Ravshan – Go‘ro‘g‘li, qahramonni emizgan baytal – “suv ot” – G‘irko‘k) ; ikkalasi ham yetim; ikkalasi ham shirko‘ri va hokozo. Bu bilan qahramon va uning jangavor oti o‘rtasida eposga xos ajoyib bir aloqa yuzaga keltiriladiki, bu butun turkum bo‘ylab izchil davom etadi. Dostonda yosh qahramonning chiltanlar bilan uchrashuvi, kelajak yo‘lining oldindan belgilanishi, epik Chambil yurtining bunyod etilishi, Yovmit eliga xon qilib ko‘tarilishi kabi voqealar juda qiziqarli tasvirlanadi. Shohdorxon va Ravshan, Ravshan va Urayxon, Rayxon va Go‘ro‘g‘li to‘qnashuvlarida butun turkumga xos bo‘lgan ijobiy va salbiy sifatlar namoyon bo‘ladi.

Ushbu birinchi dostondayoq o‘zbek “Go‘ro‘g‘li” turkumiga xos bo‘lgan cheksiz fantaziya, ko‘z ilg‘amas geografik va etnografik kengliklar to‘la namayon bo‘ladi. Bu hol ayniqsa “Yunus pari”, “Misqol pari”, “Gulnor pari” dostonlarida yanada yaqqol ko‘rinadi. Epik an‘analarga ko‘ra, Go‘ro‘g‘lining ikki xotini – Yunus va Misqol parilar (Po‘lkan varianti bo‘yicha uchinchi – Gulnor bor). Parilar Go‘ro‘g‘liga ilgaridan “ belgilangan “ bo‘lsalar-da, ularni qo‘lga kiritish uchun yuksak jismoniy kuch bilan bir qatorda aql, farosat, usta tadbirkorlik ham kerak edi. Dostonlarda parilar podsholigi, undagi saroy va oilaviy hayot inson turmushining ideal ko‘rinishi sifatida keng, hayotiy lavhalarda juda real tasvirlanadi. Baxshi inson turmushi bilan bog‘liq hayotiy, tarixiy va etnografik tasvirlarni muhabbat bilan bayon etadi. Kitobxon va tinglovchi shunday bir bepoyon fantastik olamga olib kiriladiki, aql boavar qilmas bu yuksak olamdan inson turmushi, tafakkuri, kurashlari, hasrat va xursandchiliklari ko‘rinadi. Real hayot bilan mustahkam bog‘liq bo‘lgan bunday chiroyli fantaziyalar namunalarini “Go‘ro‘g‘li” dostonlaridan istagancha topsa bo‘ladi (“Balogardon”, “Malika ayyor”, “Mashriqo” va boshqa dostonlarni eslash kifoya).

Turkumda Go‘ro‘g‘li va Chambil yurtining doimiy tashqi dushmanlari sifatida Rayxon arab, Bektosh arab, Xunxorshoh va boshqalar tilga olinadi. Shirvon xoni Rayxon arabning Go‘ro‘g‘lining yangasi (Ahmad Sardorning xotini) Xoljuvonni olib qochib ketishi va o‘z navbatida yosh Go‘ro‘g‘lining Rayxon arabning qizi Zaydinoyning tog‘asiga keltirib berishi (“Zaydinoy”

dostoni) ular o'rtasidagi qator dushmanlik harakatlarining ko'pchilik asarlarda epizodlik tarzda tilga olinsa, ayrim dostonlarda ("Rayxon arab", "Chambil qamali", "Bektosh arab" va boshqalar) bu narsa ikki xalq o'rtasidagi jang tarzida kengaytiriladi. Lekin bosqinchilik urushini har gal arab hukumdorlari boshlaydi va har gal ular Go'ro'g'li'dan yengiladi.

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonning ota jihatdan tog'asi (otasi Ravshanning tog'asi) Ahmad Sardor bilan, Ahmad Sardorning qirq yigit, Xasan, Avazlar bilan munosabatlari ham muhim o'rin tutadi. Ahmad Sardorning oilaviy va siyosiy intrigalari, Go'ro'g'li va uning yigitlariga nisbatan g'arazi ayrim asarlarda "Avazning arazi", "Xoldorxon", "Intizor", "Xidirali elbegi", "Malika ayyor" va boshqalar umumiy tarzda qo'yilsa, bir qator dostonlarda ("Ahmad Sardor va Hasanshoh", "Ahmad Sardor va Avaz", "Avazning o'limga hukm etilishi") bunday harakatlar asar syujetining asosini tashkil etadi.

Turkumda Go'ro'g'lining bahodir qirq yigitiga alohida o'rin beriladi. Bular Go'ro'g'lining bahodirliklarini tan olib, uning atrofiga ixtiyoriy ravshda uyushgan turli urug' va qabilalarning beklari hisoblanadi. Masalan, Zamonbek taka urug'idan, Shodmonbek o'zbekning mo'ytan urug'idan, Xidirali elbegi qoraqalpoq, To'lak botir tojik va boshqalar. Ayrimlarini esa (Xoldorxon, Yusuf sulton, Ashurbek) Go'ro'g'libek turli mamlakatlardan olib keladi. Go'ro'g'lining qirq yigiti qayerdan va qaysi urug'dan bo'lmasin, epik ozodlik o'lkasi Chambilning ozodligi, xalqning farovonligi uchun tinmay kurash olib boradi. Shuning uchun ham ular baxshilarimiz tomonidan buyuk samimiyat va hurmat bilan ulug'lanadi. Go'ro'g'lining doimiy yo'ldoshi bo'lgan bu jasur yigitlarning bir qanchasi faoliyatiga alohida-alohida dostonlar ("Xoldorxon", "Xidirali elbegi", "Hilomon", "Shodmonbek", "Doniyorxo'ja", "Berdiyor otaliq" va boshqalar) bag'ishlangan.

Turkumdagi anchagina dostonlar Go'ro'g'lining asrandi farzandlari-Hasan, Avaz, nevaralari Nurali, Ravshan va evarasi Jahongirlarning qahramona sarguzashtlariga bag'ishlangan bo'lib, bular ham o'zaro muayyan turkumchalarni tashkil etadi. Avazxon esa, butun bir dostonlar ("Intizor", "Bo'tako'z", "Qunduz bilan Yulduz", "Mashriq", "Malika ayyor", "Zulfizar bilan Avaz", "Gulixiromon" va boshqalar) turkumining bosh qahramonidir. Bu dostonlarning asosini Avazxonning turli afsonaviy mamlakatlar go'zallarini olib kelish uchun ko'rsatgan bahodirliklari tashkil etadi. Hasan va Avaz kichik turkumlari Go'ro'g'li, G'iro't, qirq yigit, doimiy traditsion obrazlar (Ahmad Sardor, Soqibulbul, Hasan Ko'lbar va boshqalar), Chambil yurti orqali "Go'ro'g'li" turkumiga birlashadi.

Nasliy turkumlik doirasida yuzaga kelgan navbatdagi dostonlar Go'ro'g'lining nevaralari – Nurali va Ravshanlarning nikoh safarini tasvirlovchi asarlar ("Nurali", "Ravshan") bo'lib, bu qahramonlar faqat bir doston doirasidagina harakat qiladilar. Ayrim joylarda (Surhondaryo va Qashqadaryo viloyatida) Nuraliga bir necha doston bag'ishlangan, ya'ni bu joylarda Nurali ancha ommalashgan.

Nasliy turkumlanishdan so'nggi halqani Go'ro'g'lining evarasi (Nuralining o'g'li) Jahongir haqidagi epik rivoyat tashkil etadi. Nasliy turkumlik prinsiplari

asosida yuzaga kelgan Go‘ro‘g‘lining o‘g‘illari, nevara, evaralari haqidagi dostonlar uning “farzandsizligi”ni keyingi planga suradi. An’anaga ko‘ra, “farzandsizlik” hisoblangan Go‘ro‘g‘li oqibatda uch avlod qahramonlarining sardori va murabbiysi sifatida maydonga chiqadi.

“Go‘ro‘g‘li” turkumi qamrab olgan voqelik va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, yuzaga kelgan shart-sharoiti, o‘rni va yaratilish davri jihatidan xilma-xil xarakterga ega bo‘lgan, turli-tuman ijtimoiy-iqtisodiy ko‘plab baxshilarning ijodiy quvvati bilan yaratilgan nisbatan mustaqil dostonlarning turkumlashishning murakkab prinsiplari asosida bir qahramon atrofida muayyan sikl sifatida birlashishi bilan dunyo folklorida kam uchraydigan noyob hodisalardandir.

O‘zbek folklorida «Go‘ro‘g‘li» turkumiga kiruvchi dostonlarining umumiy soni yuztaga yaqinlashib qoladi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi folklor arxivida birgina “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonining o‘n beshga yaqin varianti saqlanadi. Bu variantlar qahramonning homila topish motivi talqiniga ko‘ra ikki katta guruhga ajraladi. I. Homila tabiiy, qahramonning tug‘ilishi g‘ayritabiiy. Bu guruhga Qo‘rg‘on varianti (Po‘lkan shoir varianti; Egamberdi Ollobergan o‘g‘li varianti; Rahmatulla shoir varianti), Haydar ota Boychayev varianti, Amin shoir o‘g‘li varianti, Xorazm variantlari kiradi. II. Homila ham, qahramonning tug‘ilishi ham g‘ayritabiiy. Ikkinchi guruhga Fozil shoir varianti, Laqay varianti, Tosh shoir varianti, Namangan variantlari kiradi.

Qahramonning g‘ayritabiiy tarzda tug‘ilib, Go‘ro‘g‘li nomini olishi barcha versiyalarda bir xil tarzda keladi. Birinchi guruhga mansub “Qo‘rg‘on” variantida voqealar tafsiloti keng, qo‘shimcha obraz va motivlar mavjud bo‘lib, qahramon otasi Ravshan deb ataladi. “Go‘ro‘g‘li”ning Xorazm variantida esa qahramonning yana bir nomi Ravshan sifatida keladi. Ravshan va Bibi hilol Shohdorxon mamlakatida bir-biri bilan topishadi. Ular Gajdumbekning roziligini olib oila qurishadi.

G‘ayritabiiy homila motivi mavjud versiyalar homilaga sababchi unsurga ko‘ra quyidagicha farqlanishadi: “Laqay” variantida – Xizr nazari, “Tosh shoir” variantida suvda oqib kelayotgan ko‘pik, “Fozil shoir” variantida otning quv kalla suyagining talqoni, “Namangan” variantida ariqda oqib kelayotgan olma.

“Go‘ro‘g‘li” dostonining har ikkala guruhiga kiruvchi barcha variantlarda kelgan homila unsurlari bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, tub asosda yagona tasavvur va dunyoqarashlarga bog‘lanib, eposning ilk bobo syujeti qanday rivojlanish bosqichlaridan o‘tganligini dalillovchi muhim faktlar sifatida namoyon bo‘ladi.

“Go‘ro‘g‘li” dostonlarining barcha variantlarini qiyosiy tadqi etish dostonlarning genezisi, rivojlanish bosqichlari va tarqalish hududlari, u yoki bu dostonchilik maktablariga xos an‘analarni o‘rganishda muhim faktik materiallar berishi bilan ahamiyatli.

Savol va topshiriqlar:

1. *Doston va unga xos xususiyatlarni sanab bering.*
2. *Dostonlarda turkumlikni misollar bilan tushuntiring.*
3. *«Go‘ro‘g‘li» turkumligini o‘ziga xosligi haqida so‘zlab bering.*

BESHINCHI MAVZU FOLKLOR IJROCHILIK SAN’ATIDA QO‘SHIQ

REja:

1. *Qo‘shiq janrining o‘zbek folklor tizimida tutgan o‘rni.*
2. *Qo‘shiq janrining o‘ziga xos xususiyatlari.*
3. *Qo‘shiq janri badiiyati va ijro san’ati.*

Qo‘shiq- to‘rtliklardan tashkil topgan, kuyga, ohangga solinib ijro etiladigan she‘riy san’at. Turkiy xalqlar folkloridagi eng qadimiy va boy janrlardan biri. Yaratilish asoslariga ko‘ra, qadimiy inonch- e’tiqod va tasavvurlar, jumladan, naimistik, totemistik, shomonlik dunyoqarashi, kultlar, marosim va udumlar, kundalik maishiy hayot bilan uzviy bog‘langan, kuy hamda raqslar bilan munosabatini barqaror saqlab qolgan, lirik xarakterdagi she‘riy sa‘nat namunalari xalq qo‘shig‘i deyiladi.

Qo‘shiq haqida dastlabki ma‘lumot Mahmud Koshg‘ariyning «Devoni lug‘otit turk» kitobida uchraydi. Bu xalq qo‘shiqlarining o‘sha olis davrlarda ham rang-barang bo‘lganligini, tarixiy ildizlari juda qadimiy ekanligidan dalolat beradi.

«Qo‘shiq» so‘zi «Devonu lug‘otit turk»da «koshug‘», Yusuf Xos Hojibda «qoshuq», Haydar Xorazmiyda «qo‘sh», Mahmud Umar Zamahshariyning «Muqaddimatul- adab» asarida «qo‘shiq», Alisher Navoiy asarlarida «qo‘shiq», «surud», «ayolg‘u», «lahn», «turku», Zahiriddin Muhammad Boburning «Bobirnonoma»sida «qo‘shiq» shaklida kelganini ko‘ramiz. Alisher Navoiy ham, Bobur ham xalq qo‘shiqlarini nazarda tutganda «qo‘shiq» kalimasini ishlatadi. Qolgan paytlarda «surud» yoxud boshqa bir atamani keltiradi.

Qadimda ajdodlarimiz qo‘shiqni odamlarga tinch-tovulik, hosildorlik, farovonlik, farzand va farovon kelajak ulashadigan iloha deb tassavur qilganlar. Cho‘qon Valixonov yozib olgan bir rivoyatga ko‘ra: Bir zamonlar qo‘shiq yer uzra uchib, odamlarni kuylashga o‘rgatgan. U ayolday injiq va go‘zal bo‘lgan. Qo‘shiq qaysi joyda ko‘proq to‘xtab, quvonsa, u yerda odamlar ser-farzand va farovon yashashgan.

Garchand, bugungi kunga kelib turkiy xalqlarda qo‘shiqlar turlicha nom bilan atalsada, ularning ildizlari bir. O‘zbeklar- qo‘shiq, qozoq, qoroqolpoqlar – qo‘siq, turkmanlar –**aydim**, turk va ozorlar koshma, **goshma**, turku, uyg‘urlar - **qo‘shoq** deb ataydilar. Ba’zi turkiy xalqlarda qo‘shiq turki ham deb ataladi. Biroq qo‘sh va qo‘shiq so‘zlari qadimiyroq bo‘lib, bugungi tushunchadagi xalq lirikasi ma’nosini angltadi.

Og‘zaki ijod namunasi bo‘lgan xalq qo‘shiqlari bilan ma’lum bir individual ijodkor tomonidan yaratilgan adabiy qo‘shiq o‘rtasida o‘zaro o‘xshashlik va farq mavjud. O‘xshashlik har ikkala qo‘shiqning ham musiqaga, ohangga, ma’lum bir o‘lchov – vaznlarga amal qilishidir. Xalq qo‘shig‘i yozma adabiyot namunasi bo‘lgan qo‘shiqlardan an‘anaviyligi, jamoaviyligi, maishiy yo‘nalganligi, variantligi, ya’ni asrlar davomida xalq tomonidan og‘zaki yaratilib, og‘zaki ijro etilib, og‘zaki meros qilib qoldirib kelinayotganligi bilan tubdan farq qiladi.

Uzoq tarixiy taraqqiyot davomida xalq qo‘shiqlari mifologik tafakkurdan badiiy tafakkurga aylanib borgan. Shuning uchun qo‘shiqlarda qadimiy tasavvur izlari bilan bir qatorda, o‘rta asrlarda, hamda kuni kecha yoxud bugun yuz berayotgan voqealarning, kechinmalar o‘z ifodasini topadi.

Qo‘shiqlarning asosiy qismi barmoq vaznidagi to‘rtliklardan iborat bo‘lib aruz vaznidagi namunalar ham uchraydi. To‘rtliklar qo‘shiqning eng qadimiy namunasi ekanligini mutaxassislar e’tirof etishadi. Qo‘shiqlarda bir xil turoqlarga amal qilinishi qo‘shiqning ohangdorligini ta’minlab, uning poetik xususiyatini ko‘chaytirishga xizmat qiladi.

Xo‘p hayda-yo, xo‘p hayda, mayda-yo, mayda. 7Q5=12

Qalqon tuyog‘im hayda, mayda-yo, mayda. 7Q5=12

Temir tuyog‘im hayda, mayda-yo, mayda. 7Q5=12

Xirmonni qilgin mayda, mayda-yo, mayda. 7Q5=12

(Yanchiq qo‘shiqlari)

Qo‘shiqlarning ijro san’atidagi o‘rnini undagi ramzlar tutgan o‘rni bilan belgilanadi. Shunday ekan eng avvola ramz nima degan savolga javob berish kerak bo‘ladi.

Ramzlar turmushda, fanda, adabiyot va san’atda keng qo‘llaniladi. Bu sohalarining barchasidagi «ramz» tushunchasini bir-biriga bog‘lab turuvchi yetakchi xossalardan biri – ularning har qaysisida ramz sifatida kelayotgan, anglayanayotgan narsaning o‘zida bir qancha tushunchalarni jamlab, turg‘un assosatsiya (imuquq) uyg‘otishidir. Lekin har bir soha o‘z tabiati(sfetsifikasi)dan kelib chiqib, ramzlarga o‘ziga xos mezon(kreteri)lar asosida yondoshadi. Ko‘pchilik holatlarda bir sohada qo‘llanuvchi ramzlar ikkinchi sohada bu xil vazifa bajarmaydi.

Turmushda, fanda, adabiyot va san’atdagi ramzlar vazifa(funksiya)lariga ko‘ra ham farqlanishadi. Turmushdagi ramzlar asosan komunikativ vazifa bajarishsa, fandagi ramzlar ma’lum tushunchalarni bildirishga, adabiyot va san’atdagi ramzlar kechinma, holat va voqealarni badiiy estetik anglatishga xizmat qiladi. Fan, adabiyot va san’atdagi ramzlarning umumiy va xususiy jihatlar haqida ilmiy adabiyotlarda qimmatli fikrlar aytilgan.

Poetik ijod mahsuli bo‘lmish folklor va adabiyot o‘rtasida ko‘pgina mushtarak tomonlar mavjud. Shu bilan birlikda ularning o‘ziga xos tuzilishi, sfetsifik ichki qonuniyatlari va boshqa muhim xossalari bir-biridan ajratib turadi.

Folklorda ijrochi (u yuksak darajada impravizator bo'lsa ham) folklor asarlarini ijro etishda, yangi asar yaratishda asrlar davomida vujudga kelgan qat'iy an'analar doirasidan butunlay chetga chiqa olmaydi. Folklorda turg'un an'analarning buzulishi, eskilik o'rniga yangisining kirib kelishi juda sekinlik bilan asrlar davomida kechadi. Adabiyotda an'analarning yangilanishida ijodkor roli katta. Xususan adabiyotdagi shakliiy an'analar juda qisqa vaqt ichida butunlay yangi o'zanga burilib ketishi mumkin. Aynan shu holni folklor va adabiyotdagi poetik obrazlar, jumladan poetik ramzlarning qo'llanilishi va tarixiy taraqqiyotida ham ko'rish mumkin.

Biz bu o'rinda dastavval folklor va adabiyotda ramz deyilganda nimani tushunishimizni aniqlashtirib olishimiz kerak. Biz badiiy asarda (folklor va adabiyotda) ramz deb-biror so'z (obraz yoki detal) va so'zlar birikmasining o'zi ifodalab kelayotgan lug'aviy ma'nodan tashqari, shartli ravishda turg'un assotsatsiya uyg'otishni va bu assotsatsiyaning nazarda tutilayotgan poetik ma'noning yuzaga chiqishida xizmat qilishini tushinamiz.

Folklordagi ramzlar birinchi galda an'anaviyligi bilan xarakterlanadi. Bu an'ana asrlar davomida shakllanib, ko'pchilik o'rinlarda tarixan xalqning uzoq o'tmishiga, turli mifologik ishonch e'tiqodlarga borib bog'lanadi. Shu sababli ham ular ijrochi va tinglovchiga mazmunan begona bo'lmaydi. Lekin an'anaviylikda primitivlikni ko'rmaslik kerak. Har bir an'anaviy ramz konkret matinda o'zining yangi semantik qirralarini namoyon qila oladi. Bu esa folklordagi sodda, takrorlanmas go'zallikni, serma'nolikni ta'minlaydi. Folklordagi ko'pchilik ramzlarning tub poetik ma'nosi deyarli o'zgarishsiz avloddan-avlodlarga o'tadi. Yangi ramzlarning paydo bo'lishi adabiyotdagiga nisbatan sekinlik bilan kechadi. Folklorda muayyan bir asar yoki ijodkorga tegishli induvidial ramz yo'q. An'anaviylik, ommaviylik, bir janrga tegishli asarlar doirasida tub turg'un ma'nolilik folklordagi ramzlar uchun yetakchi xossalari hisoblanadi.

Folklorga qarama-qarshi o'laroq adabiyotdagi ramzlar ijodkor talanti va iqtidori bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Har bir ijodkorda xalq simvolikasini, umum adabiyotdagi an'anaviy ramzlarni qo'llash, ularga o'zgacha poetik ma'no bera olish bilan bir qatorda yangi ramzlar yaratish, boshqa adabiyot, xalqlarga mansub ramzlardan foydalanish imkoniyatiga ega.

Adabiyotdagi ko'pchilik an'anaviy ramzlar tarixan folklordagi ramzlarga borib bog'lanadi. Lekin ular aynan folklordagi poetik ma'noni tashiydi deb hukm chiqarib bo'lmaydi. Chunki davr, muallif maqsadi ramzga yangicha poetik mazmun yuklashi mumkin.

Folklor va adabiyotdagi ramzlarning o'ziga xos jihatlarini ko'rsatuvchi yana bir muhim xossalardan biri, asarda ramz ifodalayotgan poetik ma'noning namoyon bo'lishida matn mazmunining roli masalasidir.

Folklordagi ramzlarning poetik ma'nosini anglashda tinglovchiga yo'nalish beruvchi asosiy omil, shu ramziy obrazning uzoq vaqtlar davomida xalq ongida shakllanib, an'anaviy ko'rinish olgan tasavvurlar tizimi bo'lsa(bu o'rinda xalq qo'shiqlaridagi vaziyat ramzlar ma'lum jihatlarini bilan adabiyotdagi ramzlarga yaqin kelishini nazardan qochirmaslik kerak), adabiyotda raziylar obraz

ifodalayotgan haqiqiy poetik ma'no bevosita matn mazmuni orqali yuzaga chiqadi.

Masalan: Savrixonning ro'moli,
To'zimasmi qirg'og'i?
Mahmudalini kuydirgan,
Qoshi bilan qabog'i.

Keltirilgan to'rtlikda «ro'mol» poetik ramz. Lekin matinda ushbu obrazning ramziy ma'nosi nima ekanligiga biror –bir aniq ishora yo'q. Mabodo ro'molni ramz sifatida olmay, o'zining buyum ma'nosida anglab, to'rtlikni talqin etishga urinib ko'rsak, o'ta jo'n xabarni uqamiz. Bu o'rinda ro'molning xalq tasavvurida va qo'shiqlarida oila ramzi ekanligini nazarda tutib teksga yondoshsak, qo'shiqda ko'ylangan asl holat ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Folklordagi bevosita tabiiy qiyos asosida paydo bo'lgan ramzlarda so'zning leksik va ko'chma ramziy ma'nosi o'rtasida bog'liqlik bilvosida sezilib turadi. Ayni holatni adabiyot va folklordagi ramzlar uchun umumiy xossalar qatorida sanash mumkin.

Folklordagi ramzlar janrlar aro nafaqat mazmunan balki har bir janr tabiatiga ko'ra shaklan tafovutlarga ham ega bo'lishi mumkin. Masalan: o'zbek folklorida doston janri kompozitsion qurilishi, bayon usuli, tasvirlayotgan obyektни qamrov imkoniyati, ifoda shakli va hajm jihatlari bilan ham qo'shiq janridan keskin farq qiladi. Bir qancha dostonlardan olingan quyidagi she'riy parchalarga e'tibor beraylik;

Qori yo'q tumansiz tog'da bel bormi,
Bahor bo'lsa bog'da ochilgan gul bormi,
Bek Go'ro'g'li tilla tomni ko'tardi,
Shu kosani olib ichar ul bormi.

Yoki

Ol-ol bo'lsin, ol-ol bo'lsin, ol bo'lsin,
Ko'ngil suysa yorning labi bol bo'lsin.
Senday o'g'lon bu yerlarga kelmaydi,
Turkmanning egasi senga yo'l bo'lsin.

Keltirilgan misollarda xalq dostonlaridan keluvchi poetik ramzlar folklorshunosligimizda epik klishelar qatorida bog'lanuvchi «Qori yo'q tumansiz tog'da bel bormi,» «Bahor bo'lsa bog'da ochilgan gul bormi»; «Ol-ol bo'lsin, ol-ol bo'lsin, ol bo'lsin»; «Bir bog'chada olma edi, nor edi»; turg'un, an'anaviy she'riy misralarda namoyon bo'lmoqda. Bu an'anaviy misralar «Oh tortganda ko'zdan oqar selob yosh»; «To o'lguncha so'ylab turgan til bo'lsin»; «G'am bilan sarg'ayib guldayin diydor» kabi epik kilishelardan doimiy assotsitsiya uyg'otuvchi turg'un she'riy misralar diqqat bilan kuzatilsa ularning har birida ma'lum so'z va birikmalarning ko'chma ma'no uchun asos bo'layotganligini ilg'ash mumkin. Masalan: birgina «Qori yo'q tumansiz tog'da bel bormi?» misrasini olib ko'raylik.

Turkiy xalqlar o'rtasida tog'ning ulug' bobo, xomiy sifatida qoraluvchi inonch qadimdan mavjud bo'lganligini va bu mifologik inonchning turli mazmunli shaklli ko'rinishlari turkiy xalqlar folklorida keng tarqalgan. O'zbek

dostonlari tarkibida ham bu qadim inonch izlarini ko‘plab uchratamiz. Dostonlarda birgina tog‘ bilan bog‘liq qator an‘anaviy she‘riy ifodalarni ko‘rishimiz mumkin. Masalan: «Erisin tog‘larning qori erisin» «Yomg‘urda emranmas tog‘larning toshi», «Manov tog‘ning boshin cholg‘on tumana». Bu an‘anaviy she‘riy misralardagi «tog‘» so‘zi asosida kelib chiquvchi ramziy ma’nolar ham bevosta yuqorida keltirilgan umumturkiy mifologik zaminga borib bog‘lanadi.

Folklordagi ramzlar janrlararo har bir janr tabiati tasvir obyekti bilan ma‘lum tafovutlarga ega. O‘zbek xalq lirik qo‘shiqlari umumiy faktidan kelib chiqib, poetik ramzning ikki muhim tipini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. O‘zak ramzlar.
2. Holat ramzlar.

Bu ikki tipni bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi deb tushunmaslik kerak. Ular qo‘shiqning jonli yashash jarayonida uzluksiz ravishda biri ikkinchisi bilan chambarchas bog‘liq. Biri ikkinchisini to‘ldirib boradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Folklorda qo‘shiq janriga xos asosiy belgilarni ta’riflab bering.
2. Ijro san’atida qo‘shiq badiiyati nimaga bog‘liq.
3. Xalq qo‘shiqlarida ramz deganda nimani tushunasiz?
4. Ramzga ta’rif bering.

OLTINCHI MAVZU

MAROSIM FOLKLOR QO‘SHIQLARI VA IJRO SAN’ATI

REja:

1. *O‘zbek folklorining janrlar tarkibi.*
2. *Marosim folklori uning o‘ziga xos xususiyatlari.*
3. *Marosim folklori va ijro san’ati.*

Insonga sihat-salomatlik tilash, uning turmushida to‘kin-sochinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki inson hayotining muhim nuqtalarini qayd etish, nishonlash maqsadida maxsus o‘tkaziladigan, xalq orasida qat’iy an‘anaga kirib qolgan xatti-harakatlar marosim deyiladi. Marosimni o‘tkazish laytida ijro etiladigan qo‘pgiq va aytimlar, o‘qiladigan afsun va duolar marosim folklorini tashkil etadi.

Kuchli an‘anaviyligi, turli-tuman ijtimoiy hodisalarni rasmiylashtirish, tabiat hodisalariga ta’sir ko‘rsatishga intilishi bilan marosimlar ijtimoiy hayotda katta o‘rin tutadi. Marosimning ruhiy va estetik ta’sir ko‘rsatishi, biror ijtimoiy akti uyushtirish, yo‘naltirish funksiyalari bevosi-ta xatti-harakat, so‘z hamda sehr-jodu qudratiga ega deb hi-soblangan narsalar vositasida amal qiladi.

O‘tkazilish vaqti, o‘rni va tarzi, funksiyalari va ishtirok-chilar sostavi bilan marosim ikki katta qismdan iborat bo‘l-tanligi uchun marosim folklori ham ikki

qismga bo'linadi. Bular: a) mavsumiy marosimlar folklori va b) oilaviy-ma-ishiy marosimlar folklori.

Mavsumiy marosimlar folklori

O'zbeklar— mavsumiy marosimlarga boy xalqlardan. Bu marosimlar esa yilniig to'rt fasliga oid xalqning yashash va mehnat tarzi bilan aloqadordir. Bundan tashqari, hech qanday mavsumiy mehnat bilan bog'liq bo'lmagan, ammo faqat qishda o'tkaziladigan marosimlar ham borki, ular bevosita mavsumiy marosimlar tarkibida olib qaraladi. Chunki ular yilning boshqa mavsumlarida o'tkazilmaydi. Umuman olganda, o'zbek mavsumiy marosimlar folklorini quyidagicha turkumlarga ajratish mumkin.

Bahorgi mavsum bilan bog'liq marosimlar. Bahor kirishi bilan dehqon va chorvadorning dala ishlari boshlanadi. Dehqon urug' sepishga tayyorgarlik ko'rish, loyqa o'tirib qolgan ariqlarni kovlash, yangi irrigatsiya shoxobchalarini barpo etish bilan shug'ullansa, chorvador yaylovlarga ko'chishga tayyorgarlik ko'radi. Dehqon va chorvador turmushidagi barcha og'ir yumushlar la ilgari hashar yo'li bilan amalga oshirilgan. Ariq va kanallar qazish paytida esa «Loy tutish» marosimi o'tkazilgan.

Loy tutish xarakteriga ko'ra agrar marosim bo'lib, quyidagicha o'tkazilgan. Biror kishi ariq qazuvchilar yonidan o'tib qolsa, uning qo'liga ketmon yoki belda loy tutishgan. U tutilgan loyni ketmon yoki bel bilan olishi shart. Mana shundaga keyin u o'zining biror hunarini ko'rsatib, qutulib ketishi kerak: qo'shiqchi bo'lsa, qo'shiq aytishi; baxshi bo'lsa, doston yoki terma kuylashi; polvon bo'lsa, kurash tushishi; temirchi bo'lsa, ariq qazish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalarni ta'mirlab-berishi yoki yangilarini hadya etishi lozim. Aytilgan hunarlardan birortasi bo'lmasa, belgilab berilgan yerning arig'ini qazib berishi yoki ariq qazuvchilarni mehmon qilishi kerak.

Mazkur marosim haqida sherobodlik marhum baxshi Bo'ri-Ahmedovdan yozib olingan birgina ma'lumotdan boshqa hech qanday material saqlanib qolmagan. Uning xabar berishicha, bir kuni otasi Ahmad baxshi tasodifan Zang kanalini qaziyotganlar oldidan o'tib qoladi. Shu payt hasharchilar unga belda loy tutishadi. Ahmad baxshi loyni olishi bilan hasharchilarga murojaat qilib, quyidagi she'riy topishmoqni aytadi:

*Hojakam hajga ketdi,
Bilmadim kujo ketdi.
Un ikki jumurtqadan
Qirq sakkiz jo'ja ketdi.*

Topishmoqning javobi— bir yil — o'n ikki oy, qirq sakkiz; haftadan iboratligini aytish. Biroq o'sha paytda hasharchilardan hech kim topishmoqqa javob topa olmaydi. Shunday qilib Ahmad baxshi hasharchilardan qutilib ketadi.

Demak, loy tutish yumor bilan sug'orilgan marosim bo'lib, u kishilarni mehnatga ruhlantirish, ularning kayfiyatini ko'tarishga xizmat qiladi.

Shox moylar marosimi. Shox moylar — dalaga qo'sh chiqa-rish marosimini o'tkazish vaqti odatda qishloq oqsoqollari-tomonidan belgilangan. Ushbu

marosimga qishloqning erkagu ayoli baravar tayyorgarlik ko'rishgan. Har bir xonadon imko-niyatiga qarab xilma-xil taomlar pishirgan, qishloqning obod yerlari supurib-sidirilgan, sholcha-gilamlar to'shalgan.

Marosim o'tkaziladigan paytda kishilar tayyorlangan taomlarni qo'sh chiqarilgan joyga olib keladilar. Qishloq oqso-qoli barcha to'planganlarga «Ishlaringga, boshlaringga kushoyish bersin; tani sihatlik, xotirjamlikni bersin; xudo yor, pirlar madadkor bo'lsin, Bobo dehqonning o'zi tarbiyat qilsin» deb olqishlar aytgan. Mana shunddn keyin pishirilgan narsalar qishloq ahliga taqsimlab beriladi. Keyin qo'shga olib chi-qilgan ho'kizlarning shoxlariga «yomon ko'z tegmasin» deb zi-g'ir moyi surtiladi va ins-jinslar — yomon ruhlardan pok bo'lsin, deb isiriq solinadi.

Dastlabki qo'sh qishloqning kekxa, hurmatli, nevara-cheva-rali oqsoqollaridan biri tomonidan solinadi. U qo'sh bilan dalada bir yoki uch marta borib kelgach, bu ishni yoshlar davom ettiradilar. Bir muddatdan so'ng barcha qishloqqa qaytib, shod-xurramlik qiladi.

«Shox moylar» dehqon faoliyatining boshlanishidan darak beruvchi marosim bo'lib, u birinchi kun magiyasi bilan bog'liq. Shuning uchun ular bu kunni yangi liboslarda, to'kin-sochinlik hamda shod-xurramlik bilan **o'tkazishga harakat qilganlar**. Chunki dastlabki kun **magiyasi haqidagi tasavvurlarga** ko'ra, biror faoliyatning ilk boshlanish kuni qanday" kechsa, u yil mobaynida **shunday davom etadi**.

«Shox moylar» o'tmishda keng nishonlanadigan agrar marosim bo'lib, dehqon hayotiga texnikaning kirib kelishi bilan bog'liq holda hozir o'tkazilmay qoldi.

Navro'z. Bu O'rta Osiyo xalqlarida juda qadimdan keng ni-shonlanib kelinadigan bahor bayrami. U bahorgi kun va tun tengligi paytida, ya'ni 21—22 mart kunlari nishonlanib, bayram bir oyga **qadar davom etgan**.

O'zbeklarda qadimdan yomg'ir chaqirish maqsadida o'tkaziladigan ikkita marosimgina saqlanib qolgan. Ulardan biri yada (jada) toshi vositasida o'tkaziladigan marosim bo'lsa, ikkin-chisi yomg'ir tangrysi Sust xotinga iltijo qilish orqali yomg'ir chaqirishdan **iborat**.

Yozgi marosimlar folkloridan faqat shamol to'xtatish bi-lan bog'liq ayrim janrlar saqlangan. Bular «Choy momo» maro-simida ijro etiladigan qo'shiqlardan iborat.

«Choy momo» marosimi». Uzoq ajdodlarimiz shamolga g'ayri tabiiy kuch-qudratga ega bo'lgan jonli mavjudot sifatida munosabatda bo'lganlar. «Choy momo» marosimi esa ana shunday qarashlarning yorqin ifodasidir.

«Choy momo» marosimi Janubiy Qozog'istonda yashovchi o'zbeklardagina saqlanib qolgan. Marosim surunkali davom etgan qattiq shamollarni to'xtatish maqsadida o'tkazilgan. Marosim atamasi shamol ma'nosini anglatuvchi chuy so'zidan olingan. Qa-dimgi turkiy xalqlarda shamol homiysi kekxa ayol sifatida tasavvur qilingan. Keyinchalik shamol ona ma'nosini aniqroq ifodalash uchun «choy» so'ziga «momo» so'zi qo'shilgan. Ma'lum bo'ladiki, «Choy momo» shamol ona ma'nosini anglatadi va bu atama o'zbeklarda ham shamolni jonli

narsa sifatida tasav-vur qilishga, u homiy kuch — keksa ayolning faoliyatidan ibo-rat hodisa sifatida qarashga asos bergan.

Ma'lumki, yoz oylari boshqali ekinlar ayni yetilgan, mevalar g'arq pishgan mahalda surunkali qattiq shamol bo'lsa, yetilgan hosil nobud bo'lishi mumkin. Mana shunday bir paytda ta-biat kuchlari oldida o'zlarini ojiz sezgan ota-bobolarimiz «Choy momo» marosimiga murojaat etishdan o'zga chora topa olmaganlar.

Sayram atroflarida marosim asosan keksa ayollar tomonidan o'tkazilgan: ikkita kampir eski ust-bosh kiyib, yuzlariga qora-kuya surtib, qo'llariga hasa olib, bittadan kaltakni yog'och ot qilib minib, «Choy momo» qo'shig'ini aytishib, qishloq ko'chala-ri bo'ylab yurishadi. Ularning ketidan boshlariga qizil sholcha yopingan beshta bo'yi yetgan qizlar qo'shiqqa jo'r bo'lib borishadi. Ulardan keyinda esa yetti-sakkiz yoshlardagi bola eshakka mi-nib olib, xonadonlardan berilgan xayr-sadaqalarni xurjunga solib yuradi. Eshakda esa o'qlog', keli sopi va supurgi birga qo'-shilib bog'langan bo'ladi. Shu tariqa marosim ishtirokchilari qishloqning barcha ko'chalarini aylanib, quyidagi qo'shiqni ay-tib yuradilar:

*Choy, choy, Choy momo,
Choy momosi o'libdi, '
Ug'li yetim qolibdi,
Bosa-bosa beringlar.*

Matriarxat davrida ayol kishi sifatida tasavvur qilingan shamol onadan rahm-shafqat tilash ham bevosita ayollar tomo-nidan amalga oshirilgan. Biroq ijtimoiy hayotda patriarxat hukmdorlik qila boshlagan, ayrim joylarda marosim ishtirokchilari ham erkaklar bilan almashgan. Demak, davrlar o'tishi bilan marosim muayyan darajada o'zgarishlarga uchragan. Marosimning ushbu tipida ana shunday o'zgarishlar ma'lum darajada o'z ifodasini topgan:

*CHo'y, cho'y, CHo'y moma,
CHo'y momaning o'lganiga uch kun bo'ldi,
CHo'y, cho'y, CHo'y moma.
Uga-uga beringlar,
Ugilib qolsin CHo'y moma.
Yig'a-yig'a beringlar,
Yig'ilib qolsin CHo'y moma,
Bosa-bosa beringlar,
Bosilib qolsin CHo'y moma.*

Marosimning Turkiston atroflarida o'tkaziladigan tipida ijro etiluvchi qo'shiq tekstida epik hamda emotsional motivlar unutilib, asosan, marosimning maqsad va vazifassh-sh oy-dinlashtiruvchi buyruq va murojaat motivlari saqlanib qolgan.

Xullas, «Choy momo» marosimi juda qadim zamonlarda ki-shilar tabiat va tabiat hodisalarini jonli mavjudot sifa-tida tasavvur qilib, ularga sig'ingan

paytlarda vujudga kelgan. Tarixiy taraqqiyot, kishilar ongining o'sishi oqibatida ana shunday tasavvurlar sekin-asta unutila boshlagach, maro-sim ham turli-tuman o'zgarishlarga uchragan holda bizning kunlarimizga qadar yetib kelgan.

Kuzgi marosimlar folklori

Shamol chaqirish marosimi. Tabiat hodisalari qadimgi aj-dodlarimiz uchun, ayniqsa, chorvachilik hamda dehqonchilik bi-lan shug'ullangan Urta Osiyo xalqlari uchun goh zarar keltirsa, goh foyda keltirgan. Bu narsani o'zbeklarning birgina shamol-ga nisbatai bo'lgan munosabatlarida ham ko'rish mumkin. Masalan, ayni yoz pallasida shamol zarar keltiruvchi narsa sanal-sa, erta kuz fasli esa g'allakorlik bilan shug'ullangan aholi uchun u ayni muddao bo'lgan. Ammo o'jar tabiat kishilarning bunday istaklariga zid holda keraksiz paytda shamol hadya etsa, kerakli paytda uni ravo ko'rmagan. Darhaqiqat, xirmonda yanchilgan donni somondan tozalash paytida shamol kerak bo'-lib qolganda kishilar shamol homiysiga iltijo qilganlar va shamol chaqirish marosimini o'tkazganlar.

Qo'shiqda shamol homiysi sifatida Haydar shaxsiyatiga, ya'ni Muhammad payg'ambarning kuyovi Hazrati Aliga muro-jaat qilinadi. Afsonalarga ko'ra, Haydar kuch-qudrati va tadbirkorligi bilan barcha tabiat hodisalari, jumladan, shamolni ham o'z izmida saqlar emish. Agar unga iltijo qi-lib murojaat etilsa, u o'zi tutib turgan shamolni qo'yib yuborar emish. Bu narsa quyidagi to'rtlikda ko'zga yaqqol tash-lanadi:

Haydar, ota-onang o'libdir, Moli senga qolibdir. Bolang suvga oqibdir, Shamolingni qo'yvor.

Qishki marosimlar **folklori**

Uzbek qishki marosimlar folklori rang-barang bo'lib, ulardan atigi gap-gashtak va Yas-yusun marosimlarigina biz-gacha saqlanib qolgan.

Oilaviy-maishiy marvsimlar folklori

Marosim folklorining katta qismini oilaviy-maishiy marosimlar folklori tashkil etadi. Chunki insonning yovvoyn yashash tarzidan madaniy yashash tarziga o'tishi oila degan mu-qaddas narsaning yuzaga kelishi bilan bog'liq holda amalga oshdi. Insonning tug'ilishidan tortib to vafotigacha bo'lgan hayoti bevosita oila doirasida kechadi. Oilaviy-maishiy ha-yotda o'tkaziladigan har bir voqea maxsus marosimlar orqali kechadi va bunday marosimlar turkumi oilaviy-maishiy ma-rosimlar deb yuritiladi.

Oilaviy-maishiy marosimlar rang-barang bo'lib, ular shartli ravishda uch guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga to'y marosimlari, ikkinchisiga motam marosimlari, uchinchisiga insonning sog'lig'i, to'kin-sochinligini ta'minlash uchun xizmat qiluvchi so'zning sehr-jodu qudratiga asoslanuvchi marosimlar mansubdir.

Marosim qo'shiqlari – xalq og'zaki ijodidagi turli marosimlar bilan bog'liq, marosimlar jarayonida ijro etiladigan qo'shiqlar qo'shiqlar. Bunday qo'shiqlarda inson hayotining eng muhim davrlari, burilish nuqtalari (tug'ilish, balog'at, uylanish, o'lim) va ularning tabiatga munosabati o'z aksini topgan bo'lib, maishiy, psixologik hamda estetik funktsiya ham bajarib keladi.

Marosim qo'shiqlarining matni, asosan, xalq to'rtliklari va baytlaridan iborat bo'lib, shakli band yoki band naqarot hususi yatlariga ega bo'ladi. Marosim qo'shiqlari har bir marosimning ichki g'oyasi va mazmunini she'r va kuy ohanglarning mushtarakligida badiiy ifodalab, tadbir qatnashchilarining ruhiy holatiga ta'sir o'tkazadi. O'zbek xalq ijodida mavsumiy marosim qo'shiqlaridan «Boychechak», «Sust xotin», «Lola», «Sumalak», «Qo'sh» kabi turli mavsum bilan bog'liq marosimlarda aytiladigan qo'shiqlar. Bularga navro'z bayramlarida, bahor kelishi, yoz kelishi yoki birinchi qor yog'ishi munosabati bilan aytiladigan qo'shiqlar mansubdir. Bu qo'shiqlarning yaratilishi va ijro etilishi o'tmishdagi kishilarning dunyoqarashlari bilan bog'liq bo'lib, ular har bir faslning xislatlarini turlicha izohlaganlar va tushunganlar. Shuning uchun ham yil fasllari va urf-odatlar ko'pgina o'ziga xos bayram yoki marosimlar bilan kutib olingan! Bularga sumalak majlisi, navro'z bayrami, yerga birinchi qo'sh solinishi, laylak kelishi, g'allaga birinchi o'roq tushishi yoki birinchi qor yog'ishi bilan bog'liq qo'shiqlar mansubdir.

Oilaviy marosim qo'shiqlaridan *Alla, Yor yor, O'lan, Marsiya* kabilar hozirgacha saklanib kelgan. Umuman, marosim qo'shiqlari xalq turmushining turli tomonlarini o'zida aks ettiradi.

Ayrim mavsumiy marosim qo'shiqlari davrlar o'tishi bilan lirik qo'shiqlarga aylangan holatlar mavjud. «Qoshingni qora deydilar», «Kichkinajon – kichkina», bolalarning «Boychechak», «CHO'chvara qaynaydi», «Oftob chiqdi olamga» kabi qo'shiqlar dastlab faqat mavsum marosimida ijro etilib, keyinchalik lirik qo'shiqlar safidan o'rin olgan.

Marosim qo'shiqlari nomarosim qo'shiqlariga nisbatan qadimiyroqdir. Marosimlar esa o'z navbatida xalqning an'anaviy dunyoqarashi, mifologik tassavurlar hosilasi ularoq yuzaga keladi. Xalq qo'shiqlaridagi poetik obraz yoki nomarosim lirika janri marosim vositasida yoxud xalqning ko'shna tushuncha va tassavuri, inonchlarning qayta poetik idroki mahsuli sifatida paydo bo'lishini e'tibordon qochirmaslik lozim.

Xalq qo'shiqlarining bunday qadim tassavurlar, marosim, urf-odatlar bilan chambarchas bog'liqligi ushbu san'taning juda qadimiy ekanligini tasdiqlaydi.

Yomg'ir yog'dirish marosimlari – Bahorda o'tuvchi mavsumiy marosimlar tizimida yil qurg'oqchilik kelgan mavsumlarda o'tuvchi yomg'ir chaqirish bilan bog'lik Sust xotin, Sut xotin, So'z xotin, Sel xotin, Suv xotin, Chala xotin, Ko'sam-ko'sam, Chayla qazon deb nomlanuvchi marosimlar yomg'ir yog'dirish marosimlarini tashkil etadi. Keltirilgan atamalar mohiyatan bir marosimning turli hududlarda aytiluvchi o'ziga xos nomlanishidir. Masalan "Sust xotin" marosimi quyidagi tartibda o'tgan. Qurg'oqchilik davri yosh-yalanglar yig'ilib bir bolani eshakka chappa o'tqazib, qo'liga suv to'la kadi ushlatib, yoniga ikki toshbaqani oyog'idan bog'lab osib qo'yishgan va uyma-uy olib yurishgan. Bola biror uy oldiga kelsa: "Voy, jonim! Kuydim-ey! Kuydim-ey!" – debqichqirgan. Uy egalari uning ustiga suv quyishgan.

Yigitlar:

Havo yohmas bo'larmi,

*Tomchi tommas bo'larmi,
Saksondagi kampirlarni,
Suv oqizmas bo'larmi,
Sust xotin-o, sust xotin,
Ko'ylaklari bo'z xotin...*

Deb qo'shiq kuylashgan. Xonadon egalari yigitlarga turli tortiqlar berishgan. "Sut xotin" marosimida bir xodaning teppa qismiga cho'p bog'lab, ayol kiyimini kiydirib, "Sut xotin" qo'shig'ini kuylab, yetti uyga olib borishgan. Xonadonlardan yig'ilgan bo'g'doy un qilinib maxsus taom tayyorlangan. "Sel xotin" marosimida boshiga g'alvir kiygan uch xotin qo'shiq aytib xonadonmaxanodon yurishgan. Chala xotin, Ko'sam-ko'sam, Chayla qazon marosimlarida ham xotin obrazi asosiy o'rin egallaydi. "Sust xotin" marosimlari qadim ajdodlarimizning "osmon suvlari", yog'in-sochin egasi sifatida qaralgan Tishtriya yulduzi kulti bilan bog'liq marosimlarning aks-sadosi sifatida baholanadi.

Yozgi marosim folklori – Yozda o'tuvchi marosimlar bevosita dehqonchilik mavsumining yoz davriga to'g'ri keladi. Yozda g'allalar o'rib bo'lingach yig'ilgan hosilni yanchib olish uchun mavsumda kerakli shamolning bo'lishi yoki aksincha yil qurg'oq kelib chang-to'zon quyinning to'xtashi uchun maxsus marosimlar o'tkazishgan. "Choymomo", "Yalli momo" shamolni to'xtatish uchun uyushirilgan marosimlar bo'lsa, "Haydar", "Ajdard bobo", "Yalang'och ota" kultlari bilan bog'liq irim-sirimlar shamol chaqirishga bog'liq tashkil etilgan. "Oblo baraka", "Haqullo" marosimlari esa g'alla o'rimini tugatish va bug'doyni yanchib olish davomida tashkil etilgan. Bu marosim va irim sirimlarda kuylanuvchi qo'shiqlar yozgi marosimlar folklori hisoblanadi. "Choy momo" marosimida besh yoki yetti nafar bo'y qizlar chorshanba, payshanba, juma kunlari uyma-uy yurib un va bug'doy yig'ishadi. Eng orqada yuradigan qiz keli sopini ko'tarib oladi. Uning etagiga bog'langan spurgi sudralib boraveradi. Qizlar quyidagi qo'shiqni kuylashgan:

Choymomo o'libdi,
O'g'li yetim qolibdi,
Bosa-bosa beringlar,
Bosilib qolsin bu shamol.
Uga-uga beringlar,
Ugilib qolsin bu shamol.

Marosimning boshqa bir ko'rinishida tadbirni boshiga chodir yopingan kampir boshqaradi. Boshqa xududda marosimda uch kampir bosh bo'lib, uning izidan yettita qiz yuradi. "Yalli momo" marosimida ushbu qo'shiq kuylanadi:

Yalli momo, yalli-yo,
Yalli momo o'ldiyo,
Quduq suvi topolmay,

Sirka bilan yuvdik-o,
Boʻzdan kafan topolmay,
Boʻyra bilan kshmdik-o!

Yalli momo, yalli-yo,
Yalli momo oʻldi-yo,
Yalli momo gullari,
Xazon boʻlmay soʻldi-yo,
Shum shamolning onasi,
Yalli momo oʻldi-yo!

“Haydar” shamol piri Haydarni chaqirish uchun aytiladigan aytimlarga ega:

Haydar-o, Haydar,
Shamolingni qaytar,
Bolang quduqqa tushibdi,
Uying qaygʻuga toʻlibdi,
Haydar, Haydar, keloqol,
Shamol boʻlib esaqol,
Bugʻdoyi menga foyda,
Samonini olaqol!

Haydarga atab aytiluvchi aytimlarning el orasida turli variantlari mavjud. “Ajdar bobo”, “Yalangʻoch ota”ga nisbat berib aytiluvchi aytimlar ham el orasida mashhur.

“Oblo baraka”, marosimi bevosita bugʻdoy oʻrimi soʻngida, oxirgi bashoqlarni oʻrish vaqti oʻtkazilsa, “Haqullo” bugʻdoyni yanchish payti uyushtirilib baʼzi hududlarda “chosh qurdi”, “chosh oshi”, “xirmon oshi” deb ham yuritilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Oʻzbek folklori tizimida marosim folklori qanday oʻrin tutadi?
2. Marosim folklorini tasnifblar bering.
3. Mavsumiy marosimlar haqida nimalarni bilasiz?
4. Oilaviy -maishiy marosim xos jihatlarni soʻzlab bering.
5. Marosim folkloridagi ijro sanʼati deganda nimalarni tushansiz?

YETTINCHI MAVZU BOLALAR FOLKLORI VA IJROCHI MAHORATI

Reja:

- 1. Bolalar folklori va uning o'ziga xos belgilari.**
- 2. Bolalar folklori janrlari.**
- 3. Bolalar folklori qo'shiqlari.**
- 4. Bolalar folklori va ijro san'ati.**

Bolalar folklori - og'zaki ijod namunalaridan biri. Odatda bolalar yoki ular uchun kattalar tomonidan yaratiladi. Folklor janrining tarkibiy qismi. O'zbek Bolalar folklori *alla, ertak, ermaklar, tez aytish, topishmoq, bolalar o'yin qo'shiqlari*, erkalam, masxaralama va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bolalar folklori bolaning tinglashiga, aytib yurishiga, o'yiniga, qo'shig'iga moslangan bo'ladi. O'zbekistonda Bolalar folklori namunalari to'plam holida 1932 yildan nashr etila boshladi. Kattalar tomonidan yaratiladigan *alla, ovutmachiq* va erkalamalar onalar mehr-muhabbati bilan yo'g'rilgan bo'lib, ularda go'dakning istiqboliga oid orzu-umidlar, bola yashayotgan muhit o'z ifodasini topadi. Bolani belash, o'tqazish, atak-chechak yurgizish, sakratish, o'ynatish va ovutishlarda «Toy-toy», «Bordi-bordi» va boshqa ovutmachiq aytiladi. Bolalar qo'shiqlarining ko'plari yil fasllari bilan bog'liq rang, «*Boychechak*», «Oftob chiqdi olamga», «Chittigul», «Laylak keldi, yoz bo'ldi», «Qurbaqa», «Qaldirg'och» kabi qo'shiqlarni bolalar tom boshida, dalalarda, qishloq ko'chalarida aytishadi. Ular bahor kelishi, yomg'ir yog'ishi, quyoshning olamni isitishi, ilk chechak, birinchi qor kabi fasl va tabiat hodisalari bilan bog'liq. «Bu bog'chada olisha», «Zuv-zuv borag'on», «Chamandagul», «Oq sholi, ko'k sholi» va boshqa qo'shiqlar turli davrda aytilaveradi. Ularda ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik, hunar va san'at bilan bog'liq mehnat jarayonlari, kattalar xatti-harakatlariga taqlid aks etadi. O'yinlar ham, qo'shiqlar ham bolalarning akliy va jismoniy kamolatga yetishiga yordam beradi, ularda zavq uyg'otadi. O'yinlar Bolalar folklorining murakkab turi bo'lib, ularda drama va musiqa unsurlari chatishib ketadi. O'yinlarni kichik yoshdagi bolalar «Choriy chambar», «Hakkalakam» kabi sanama o'yinidan, katta bolalar «Qushim boshi» degan topishmoqdan boshlaydi.

Bolalar bog'chalari, maktablarda o'yinlardan keng foydalaniladi. Bolalar folklori yosh avlodni intizomli, jasur, qat'iyatli, qiyinchiliklarni yengishga, o'rtoqlariga yordam berishga tayyor bo'lish singari yaxshi sifatlarga ega bo'lib o'sishlariga yordam beradi. Uning ayrim namunalari maktab darsliklari va o'qish kitoblariga kiritilgan.

Bolalar o'yin qo'shiqlari - folklor janri. Bolalar o'yini jarayonida aytiladi. Bolalar o'yinining tarkibiy qismi bo'lib, o'yin uchun zamin, kayfiyat hozirlaydi, ishtirokchilar harakatini to'ldiradi, dramatik holatni yuzaga keltiradi. O'zbek bolalarining ko'plab an'anaviy o'yini ko'shiqlari bor. Odatda, bolalar o'z o'yinlarini chek tashlash yoki sanamalar («Bir, ikki ...o'n olti», «Choriy chambar» va boshqalar), shuningdek «O'rta qo'l topish», «Guldur gup» va boshqalar yordamida boshlaydilar. O'g'il va qiz bolalar o'rtasida «To'p», «To'p tosh», «Chittigul» kabi o'yinlar keng tarqalgan va o'ziga xos qo'shiqdari ham bor. Bolalar o'z davrasida ularni aytish orqali qo'shiqchilik mahoratini

namoyish etadilar, akalari, kelinoyilari va boshqalarni tasvirlaydilar. Koptok o'yinida aytiladigan qo'shiq koptokning yer yoki devorga urilishiga hamohang bo'lib, u orqali yutuqlar soni hisoblanadi. Xarakat va ovozning ritmik birligi o'ziga xos musiqiylik yaratib, bolaning o'yin holatidagi kayfiyatini ifodalaydi. Unda ma'lum tarixiy davr, bolalar o'sayotgan sharoit, oilaviy muhit va bunga ularning munosabati, shuningdek kayfiyat va kechinmalari yaqqol sezilib turadi.

Bolalar o'rtasida keng tarqalgan «Oq terakmi, ko'k terak?», «Chuchvara qaynaydi», «Tepdim, sandiq ochildi», «Dumsiz tulki», «Quyonom, quyonom, ne bo'ldi» kabi o'yin va ularning qo'shiqlari O'zbekistonning turli joylarida turlicha nomda uchrasa ham, mazmuni asosan bir xil. Bolalarning o'zaro muomala madaniyatining oshishi, kirishimlilik, dilkashlik kabi fazilatlarining shakllanishi, shuningdek xam jismoniy, ham ma'naviy o'sishida bunday qo'shiqlar muhim ahamiyatga ega.

Bolalar qo'shiqlari atamasini keng ma'noda tushunmoq kerak. Birinchi o'rinda kattalar tomonidan bolalarga atab aytiladigan qo'shiqlar: Alla va huyalar. Alla onalar tomonidani bolalarni, uxlatish, erkalatish uchun aytgan qo'shiqlari (q.Aalla). «Huya» bu O'zbekistonning janubiy viloyatlarida otalarning bolalarni erkalatish uchun aytgan qo'shiqlaridir. Alladan farqli tomoni uni faqat erkaklar ijro etadi. Huya aytish an'anasi bugungi kungacha yaxshi saqlanib kelinayapti (q.Huya). Ikkinchisi esa bolalarning o'zi tomonidan kuylanalidigan qo'shiqlar. «Boychechak», «Chittigul», «Oq terakmi ko'k terak», chorlamalar shular jumlasidandir (q.Bolalar folklori).

Bolalar o'yinlari - bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biri. Bolalar o'yinlari bolalarning har tomonlama kamol topishiga katta ta'sir qiladi. O'yin vaqtida sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, diqqat, iroda, hissiyot va boshqa ruhiy jarayonlar ishtirok etadi. Bolalar o'yinlarining uch asosiy xususiyati bor. Birinchidan, bola o'yin faoliyatini erkin, o'z xohishi bilan bajaradi. Ikkinchidan, mazkur faoliyatning ijodiy va faolligidir. Uchinchidan, o'yin harakatlarining jo'shqinligi: bola o'yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, unda o'rtoqlik hissi kuchayadi va hokazo Bolalar o'yinlari mazmuniga qarab o'yinchoqli, voqeaband (syujetli), harakatli va didaktik o'yinlarga bo'linadi: 1) o'yinchoqli o'yinlar asosan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o'yinlaridir (sodda o'yinchoqlar, masalan, shiqildoq, qum bilan o'ynash); 2) voqeaband o'yinlarda bolalar kattalar faoliyatiga taqlid qilishadi. Bu o'yinlar bolaning tashqi muhitidagi voqelikni aks ettiradi (masalan, «bola boqish», «ovqat pishirish», «bog'cha-bog'cha» o'ynash va boshqalar). Bolalar ulg'aygan sari ularning voqeaband o'yinlari ham murakkablasha boradi; 3) harakatli o'yinlarni bolalar yakka-yakka yoki birgalikda bajaradilar (masalan, koptok o'ynash, tez yugurish va boshqalar). Bu o'yinlar maktab yoshidagi bolalarga ayniqsa foydalidir: bolalar sog'lig'ini mustahkamlaydi, ularni irodali qilib tarbiyalashga yordam beradi. Bolalarning sport o'yinlari ham harakatli o'yinlardandir; 4) didaktik o'yinlar ni tarbiyachilar o'ylab topadi. Bu o'yinlar bog'chalarning katta guruhlarida tarbiyalanadigan va boshlang'ich sinflarda o'qiydigan bolalarga mo'ljallanadi (masalan, tabiiy-ilmiy mavzularga, chet tili so'zlarini eslab qolishga oid, loto o'ynash va hokazo). Bu o'yinlar bolalarda

sezgi, idrok, diqqat, xotira, zehn kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolani sog'lom va baquvvat bo'lib o'sishiga imkon beradi. Misol uchun «Guldur gup» ana shunday bolalar o'yinlaridan biri.

Guldur gup – bolalar folklor janrlaridan biri. Bu o'yin folklori orqali bolalardagi chidam, bardosh sinab ko'riladi. Bolalar biror o'yinni boshlash oldidan shu o'yinning boshlovchisini aniqlashda, biror narsani olib kelish uchun nomzod tanlanganda bolalarning boshlig'i (onaboshisi) barchasining oldiga shart qo'yadi. Bu shartga binoan hech kim gapirmasligi va kulmasligi lozim. Bunday shartni bajarish bolalardan chidam, bardosh talab qiladi. Agar biror bola bu shartni buzsa, bajarilishi lozim bo'lgan vazifa ana shu bolaning zimmasiga tushadi.

Bolalar oldiga qo'yiladigan shart she'riy misralar orqali bayon qilinadi. Bunday she'rlar juda ko'p variantlarda keng tarqalgan bo'lib, ular har xil hajmga ega. Masalan:

Guldur-gup,

Guldur gup.

Kim gapirsa,

Og'ziga cho'p.

Yoki:

O'raga sichqon tushdi,

Guldur-gup.

Guldur-guplar, odatda, u qadar kata hajmga ega bo'lmaydilar: ular ikki misradan tortib olti, yetti misragacha bo'lishlari mumkin. Vazn tuzilishi jihatidan ham guldur-guplar uch hijodan tortib yetti hijoli vazngacha ega bo'ladilar.

Savol va topshiriqlar:

1. *Bolalar folklor janriga xos belgilarni sanab bering.*
2. *Bolalar folklori namunalarini aytib bering.*
3. *Bolalar folklorida hududiy o'ziga xoslik deganda nimani tushansiz?*
4. *Bolalar folklorini qiyosiy tahlil etishga urinib ko'ring.*

SAKKIZINCHI MAVZU FOLKLOR ASARLARI IJROSIDA SO'Z, KUY VA RAQS UYG'UNLIGI

REja:

1. *Folklor asarlari sinkretik san'at namunasi sifatida.*
2. *Folklor asarlarining kuy va raqsga uyg'unligi.*
3. *Folklor asarlari ijrosi va badiiyluk masalalari.*

Xalq og'zaki ijodi, ya'ni folklor — xalq ommasining badiiy, ijodiy-amaliy va havaskorlik faoliyati; an'anaviy moddiy va nomoddiy

madaniyatning xalq ogʻzaki badiiy ijodi (folklor), xalq musiqasi (musiqa folklori), xalq teatri (tomosha sanʼati), xalq oʻyinlari (raqs), qoʻgʻirchoqbozlik, dor va yogʻoch oyoq oʻyinlari (xalq sirki), xalq tasviri va amaliy bezak sanʼati hamda texnikaviy va badiiy havaskorlik kabi ijodiyot turlari. Yaratilishi va ijodiy jarayonida koʻpchilikning ishtiroki boʻlgan Xalq ijodining turlari xalq turmush tarzi, yashash sharoitlari, ijtimoiy mehnat darajasiga mos ravishda shakllanyb, avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga oʻtib, doimiy ravishda mukammallashib, sayqallashib, tobora anʼanaviylashib borgan va nihoyat, kasbiylik (professionallik) xususiyatiga ega boʻlgan, jonli ijro sharoitlari va kundalik amaliyotda bizgacha yetib kelgan. Shuningdek, Xalq ijodining bir qator qadimiy namunalari yozma manbalarda, tarixchi va yozuvchilarning asarlarida, qoyatoshlarda (Sarmishsoy, Za-rautsoy rasmlari kabi), arxeologiya va arxitektura yodgorliklarida, uy-roʻzgʻor buyumlarida saqlanib kelgan.

Xalq ijodi namunalarida xalqning turmush tarzi, ijtimoiy va maishiy hayoti, mehnat faoliyati, tabiat va jamiyatga qarashlari, eʼtiqodi va diniy tasavvurlari, inson va olamga nisbatan his-tuygʻulari, badiiy olami, bilim darajasi, baxtli va adolatli zamon haqidagi oʻy-fikrlari oʻz ifodasini topgan. Xalq ijodi qadimdan rivojlanib kelgan (qarang, *Ibtidoiy sanʼat*). Jamiyat taraqqiyoti va mehnat taqsimotining kuchaya borishi bilan Xalq ijodi janrlariga nisbatan ayrim isteʼdodli shaxslarning ixtisoslashuvi osha borgan. Shu tariqa baxshilar, masxarabozlar, qiziqchilar, qoʻgʻirchoqbozlar, raqqoslar, mashshoklar, naqqoshlar, kulollar, oʻymakorlar, kashtadoʻzlar va hokazo kabi sanʼati yuzaga kelgan, korfarmon va ishboshilar paydo boʻlgan. Ammo uning yaratilishi va oʻzlashtirilishida koʻpchilikning ishtiroki, har bir ijro yoki amaliyot qadimdan qaror topgan mustahkam anʼanalar doirasida voqe boʻlishi saqlanib kelgan. Har qanday badiha, ijodiy xatti-harakat, yangilik barqaror anʼanalar va ustoz-shogird munosabatlari doirasida roʻy bergan. Bir tomondan, anʼanalarning oʻzi rivojlana borgan, ikkinchi tomondan, har bir ijro yoki amaliyot davomida oʻzgartirishlar, yangiliklar kiritilgan, yangi asarlar, variantlar yuzaga kelgan. Qay birlari unutilib, ijro va amaliyotdan tushib qolgan.

Xalq ijodi professional sanʼatning yuzaga kelishi va rivojida katta oʻrin tutadi. Oʻz navbatida, professional sanʼat ham Xalq ijodi rivojiga taʼsir koʻrsatib, uni boyitib kelmokda.

Xalq ogʻzaki badiiy ijodi (folklor). Inson nutqi shakllanishi bilan xalq ogʻzaki badiiy ixodining qadimiy tur va janrlari ham qorishiq holda yuzaga kela boshladi. Kishilik badiiy tafakkurining turli shakllarini oʻz ichiga olgan bu sinkretik ijod namunalari ibtidoiy inson maishati va faoliyatining barcha jihatlarini bilan mahkam bogʻlangan boʻlib, qadimiy odamlarning diniy-eʼtiqodiy va mifologik qarashlarini, boshlangʻich ilmiy (empirik) bilimlarini, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlarini aks ettirgan. Biroq qadimiy folklorning bunday namunalari bizgacha yetib kelmagan, balki ularning izlari va ayrim qismlari xalqning yashash va turmush tarzi bilan bogʻliq turli-tuman tasavvur va qarashlarida, xalq urf-odatlarini, udumlari,

marosimlari, bayramlari tarkibida, ba'zi bir yozma manbalarda, keyingi davrlarda yozib olingan folklor asarlarida qoldiq holdagina saqlanib qolgan. Yozuvning yuzaga kelishi natijasida xalq og'zaki badiiy ijodi bilan tarixan bog'liq adabiyot xam paydo bo'ldi. Badiiy matnning ayrim ijodiy (yozuvchi, shoir, dramaturg) faoliyat bilan bog'lanishi, muayyan ijodiy harakat sifatida yozuv bilan mustahkamlanishi adabiyotning asosiy xususiyati bo'lib, insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotidagi o'ziga xos burilish nuqtasidir. Adabiyot o'zining taraqqiyoti davomida folklordan barcha estetik tushunchalar va badiiy shakllarni olganligiga qaramay, o'ziga xos badiyat qonuniyatlari asosida mustaqil ravishda rivojlana bordi. So'z san'atining mustaqil turi sifatida folklor ham u bilan birgalikda yonma-yon yashab keldi. Chunki kishilik jamiyatining umumiy estetik talabi va ehtiyoji uzoq yillar davomida faqat adabiyot bilan emas, balki folklor bilan ham mus-taxkam bog'liq bo'ldi. So'z san'ati bu ikki turining mustaqil rivoji, adabiyot va folklor asarlari yaratilgan ijtimoiy muhitdagi farkdar, ijodiy jarayonning xilma-xilligi ularning o'zlariga xos spetsifik xususiyatlarini yanada kuchaytirdi. Natijada adabiyot va folklor o'zlariga xos muayyan estetik tizim, janrlar tarkibi, badiiy xususiyatlarga ega bo'lgan so'z san'atining mustaqil ikki turi — og'zaki va yozma turi sifatida rivojlanishda davom etdi.

Yaratuvchilik va ijrochilik jarayonining og'zakiligi va unda ko'pchilikning ishtirok etishi (jamoaviylik) xalq og'zaki badiiy ijodining asosiy xususiyatidir. Uning an'anaviylik, o'zgaruvchanlik, variantlik, ommaviylik, anonimlik (muallifining noma'lum-ligi) kabi ko'pdan-ko'p belgilari folklorga xos ijodiy jarayonning ana shu bosh xususiyati doirasida namoyon bo'ladi. Folklor namunalari og'zaki yaratilib, ajdodlar va avlodlar aloqadorligida og'zaki tarqalar hamda ommaviy repertuardan keng urin olar ekan, bunda badiiy shakllarning barkarorligi (turg'unligi), matndan matnga o'tuvchi umumiy o'rinlarning qat'iylashganligi, o'xshash sayyor syujetlarning ko'pligi imkoniyat yaratadi. Har bir ijodkor (qayta ijod) va ijroda an'anaviy asardagi nimalardir o'zgaradi, nimalardir avvalgisidan boshqacharoq talqin etiladi, nimalardir qo'shiladi yoki tushib krladi. Bunday o'zgaruvchanlik ijtimoiy muhit, maishiy sharoit, eshituvchilar talabi va ijrochi (ijodkor) salohiyatiga bog'liqarang, Lekin har qanday o'zgarish, ijro davomidagi qayta ijod asrlar davomida kagiylash-gan puxta an'analari doirasida sodir bo'ladi. Demak, jonli og'zaki an'ana doirasidagi badihago'ylik folklor asarlarining ko'p variantlarida tarqa-lishiga olib keladi.

Xalq og'zaki badiiy ijodining deyarli barcha janrlari turlituman ijrochi va ijodkorlar faoliyati bilan bog'liq, Iste'dodli ijodkorlar folklor namunalari saqlab qolish va keng ommalashtirish bilan birga og'zaki an'analari doirasida uni yanada mukammallashtiradilar, ba'zan yangilarini ham yarata oladilar. Biroq bunda barkarorlashgan va qat'iylashgan jamoaviylik an'analari yetakchilik qiladi. Ayrim janrlar (masalan, topishmoq, maqol kabi) ommaviy xarakterga ega bo'lsa, ya'ni ularning namunalaridan har bir kishi ozmi-ko'pmi ayta olsa, boshqalarining (masalan, doston, og'zaki drama singari) ijrosi muayyan tayyorgarlikni talab qilgan. Shu tariqa xalq og'zaki

badiiy ijodi namunalarini yaratish va ijro etishda o'ziga xos kasbiy ijodkorlik yuzaga kelgan. O'zbek folklorida ijodkor va ijrochilarning kasbiylashuvi nihoyatda rivojlangan. Baxshilar, ertakchilar, askiyabozlar, qiziqchilar, dorbozlar ijrochiligi professional san'at bo'lib, uni egallash uchun bo'lg'uvchi ijodkor maxsus tayyorgarlik ko'rishi va muayyan ustozdan ta'lim olishi zarur bo'lgan.

Afsona, rivoyat, lof, latifa, maqol, topishmoq, ertak, doston, qo'shiq, askiya, og'zaki drama va boshqalar xalq og'zaki badiiy ijodining asosiy janrlari bo'lib, ular so'z san'ati namunalari bo'lish bilan birga muayyan ijtimoiy-maishiy funksiyalarni ham ado etadilar. Masalan, ho'p mayda, ho'sh-ho'sh, tu-rey-turey, churey-churey kabi qo'shiq turlari mehnat jarayonlariga aloqador bo'lsa, yor-yor, o'lan, lapar, kelin salom, yig'i-yo'qlov, badik, sust xotin singlarlar har xil marosimlar bilan bog'liqdir. Folklor janrlari g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan emas, balki ijro usullari (yakka ijrochilik, jamoaviy ijrochilik, sozli, sozsiz kabi) jihatidan ham bir-birlaridan farq qiladilar. Ularning biri kuylash uchun, ikkinchisi aytib berish, hikoya qilish uchun, boshqasi ko'rsatish, namoyish etish uchun yoki ham kuylash, ham o'ynash, ham aytish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Folklor janrlari qanchalik xilma-xil, ba'zan o'ta funksionallashgan va qat'iy vazifador bo'lishiga qaramay, ular yaxlit badiiy tizimni tashkil etadi.

Folklor janrlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liqarang, Xalq hayotidagi tarixiy o'zgarishlarga ko'ra, ular ham o'zgara borgan. Qay bir janrlar yoki namunalar butunlay yo'qolgan, yangilari yuzaga kelgan. Shuning uchun ham ularda ko'p qatlamlilik mavjud bo'lib, uzoq ijro davomida bir necha davrlar o'z izini qoldirgan. Janrlarning bosqichli taraqqiyoti va tarixiy-tipologik nuqtai nazardan qaraganda, eng qadigi davrlarda ko'pchilik xalqlarda miflar, urug' va qabilalar haqidagi afsona va rivoyatlar, topishmoq va maqollar, olqish va qarg'ishlar, mavsum-marosim folklori namunalari, mehnat qo'shikdari keng tarqalgan. Keyingi davrlarda esa, ertaklar, eposning arxaik shakllari yuzaga kelgan. Patriarxal-urug'chilik munosabatlarining yemirilishi va ilk davlatlarning shakllanishi davrida qaxramonlik dostonlari yaratilgan. Keyinroq romanik epos, lirik va tarixiy qo'shiqlar, og'zaki drama, latifa va loflar paydo bo'lgan.

Xalq og'zaki badiiy ijodi milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida juda katta ijtimoiy qiymatga ega. U xalqning tarixi, maishati, urf-odatlarini, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari, orzu-umidlari haqida keng bilim beradi. Unda xalq badiiy didi, voqelikka nisbatan xalqona estetik munosabat ifodalangan. Estetik sezgilar rivojida, go'zallikni, badiiy so'z qadri va qimmatini, ona tili boyliklarini his qilishda uning ahamiyati beqiyosdir. Folklor professional san'at turlari — adabiyot, teatr, musiqa, kino va boshqalar taraqqiyotida muhim rol o'ynadi.

Xalq musiqasi (musiqiy folklor) — *og'zaki an'anadagi musiqa* turi. Ibtidoiy san'atda paydo bo'lgan o'yin usullari, jodu aytimlari, tovushli signallardan tortib xalq ashula va cholg'u kuylargacha kabi shakllardan iborat. Boshqa musiqa turlaridan, asosan, turmush jarayoni (urf-odat,

marosim, bayram va boshqalar)ga bevosita bog'langanligi bilan ajralib turadi. Aksariyat musiqiy folklor namunalari sof estetik hodisalar ma'nosida emas, kundalik hayot (maishiy, mehnat, marosim va boshqalar) vazifa-larini bajaradigan badiiy shakllar sifatida qaror topadi. Ko'pgina xalq musiqasi namunalari sinkretik shakllar bo'lib, bularda kuy-ohanglar so'z (*ko'shiq, terma, lapar*), raqs (o'yin-raqs kuylari), tomosha (musiqiy tomosha) bilan uyg'unlashgan holda yuzaga keladi. Muayyan badiiy an'ana va shakl (maalan, ohang) andozalariga asoslangan xalq musiqa namunalari turli davr va sharoitda (masalan, tinglovchilar yoki ijrochilar tarkibi, ijro etish vaqqi, joyi va muhitiga qarab) o'zgaradi. Shuning uchun har bir musiqiy folklor namunasining bir necha varianti mavjud bo'ladi. Xalq musiqasida mintaqaviy, milliy va mahalliy uslublar ajratiladi (masalan, o'zbek xalq musiqasida *Buxoro—Samarqand musiqa uslubi, Surxondaryo—Qashqadaryo musiqa uslubi* va boshqalar).

Musiqiy folklor namunalari badiiy mazmun jihatidan epik (terma, musiqiy ertak, *maddohlik*, qissaxonlik, afsona kuylari kabi), dramatik (musiqiy tomosha va boshqalar) va lirik (qo'shiq, lapar, *yalla*, madhiya va boshqalar) turlarga, ijro etish sharoitiga qarab — maishiy, *marosim qo'shiqlari*, mehnat qo'shiqlari va boshqa turlarga ajratiladi. Xalq musiqasi namunalari xalq (omma) badiiy ongining mahsuli sifatida hayot kechirib, yakka holda havaskor xonanda (*guyanda, xalfa* va boshqalar), sozanda (do'mbrakash, dutorchi kabi) tomonidan, shuningdek, ansambl yoki jamoaviy tarzda ijro etiladi. Xalq musiqasi milliy musiqa uslubining asosi, bastakor va kompozitorlar ijodi, ommabop musiqaning muhim manbaidir (qarang, *Xalq kuylarini qayta ish-lash*). Musiqiy folklor, o'z navbatida, professional musiqa san'ati bilan o'zaro chambarchas aloqada rivojlanadi. Hozirgi davrda xalq musiqa namunalarining qadimiy va o'zgartirilgani, shuningdek, ular asosida yangidan yaratilganlari mavjud.

Xalq musiqa *cholg'u asboblari* xilma-xil. Ular bir xalqqa (masalan, qirg'izlarda ko'muz, ukrainlarda bandura) yoki asriy tarixiy-madaniy aloqadagi turli xalqlarga (masalan, o'zbek, uyg'ur, turkman, qoraqalpoqlarda dutor va boshqalar) mansub bo'lishi mumkin. Xalq musiqasi namunalarini ijro etish muhiti va boshqalar xususiyatlarini yozib olish bilan musiqiy etnografiya, tadqiq etish bilan musiqiy *folkloristika* (etnomusiqashunoslik) shug'ullanadi.

Radif (*ar.* mingashuvchi so'zidan) — she'riy misralarda qofiyadan so'ng keluvchi so'z, so'z birikmasi yoki gap. Mumtoz ilmiy asarlarda qofiya elementlaridagi raviydan so'ng keluvchi takrorlangan harflar radif hisoblangan. Bugungi kunda matnda aniq ma'no anglatuvchi, she'rdagi u yoki bu narsani ta'kidlovchi mustaqil so'z, so'z birikmasi yoki gapni radif sifatida tan olingan.

Radif faqat lirik poeziyaga mansub janrlarda qo'llaniladi. Radif lirik janrlarga mansub asar misralaridagi so'zlarning qofiyadan so'ng kelishi; bir asar doirasida to'liq qo'llanilishi; radif bo'luvchi qism mustaqil so'z, so'z birikmasi yoxud gap bo'lishsh; asardagi u yoki bu ma'noni ta'kidlab, kuchaytirib, urg'u berib keliish lozim.

Daryo suvga to'layotir, alla,
O'g'lim menga kulyotir, alla.
O'g'lim menga qarab kulsa, alla,
Ko'nglim nurga to'layotir, alla. (Xalq qo'shig'i).

Ayrim qo'shiqlarda radif ikki, uch va undan ortiq so'zlardan ham iborat bo'lishi mumkin:

Ko'cha –kuying loy bo'libdi, yor-yor, yorona,
O'tgani joy bormikan, yor-yor, yorona.
Oq yuzingga xoli tushibdi, yor-yor, yorona,
O'pgani joy bormikan, yor-yor, yorona. (Xalq qo'shig'i).

Ritm (*yunoncha* *rhythmos* – takt, ohangdosh so'zidan) marom, davriylik – she'riyat, musiqa, raqs, tasviriy san'at, amaliy bezak san'ati va me'morlik turlari shakl larining asosiy prinsipi. Nazmdagi Ritm tovush asosida paydo bo'la di. Dastlabki she'rlarda satrlar o'lchov jihatdan teng bo'lmagan, ammo ular parallel qo'yilgan, bu esa sintaktik parallelizm deyilib, u she'r tuzilishining folklor tipiga xosdir. Xususan, turkiy xalqlarning qadimiy she'rlaridagi misralarni alliteratsiya va so'z takrorlari uyushtirgan; bunda ichki qofiya ham qatnashgan; so'ng qofiya misralar oxiriga ko'chib, evfoniya (ohangdorlik) vazifasinigina emas, Ritm vazifasini ham ado eta boshlagan. She'r to'zilishining tizimlarga va guruhlarga ajralishi shundan so'ng ro'y bergan. She'r tuzilishining folklor tipidan so'ng kvantitativ she'r tuzilishi paydo bo'lgan, u asosan sinkretik davr (san'atning aralash rivojlangan davri)ning she'r texnikasi bo'lgan. Muayyan, bir-biriga teng narsalarning bir xil vaqt birligida takrorlanib turishi.

Barmoq she'riy sistemasida misralardagi hijolarning ichki guruhlarga – turoqlarga birlashishi, turoqlarning o'zaro nisbati va ularning yig'ilib, har bir misradagi umumiy hijolar miqdorining aniqlanishi, nihoyat, misralararo hijolarning nisbati she'rning vaznini belgilashga imkon beradi.

Aruz she'riy sistemasida esa cho'ziq (–) hamda qisqa (V) hijolarning ma'lum tartibda butun she'r yoki she'riy parcha davomida takrorlanib kelishi natijasida o'ziga xos ruknlar, ruknlar yig'ilib kattaroq ritmik birliklar hosil bo'ladi va shu yo'l bilan she'riy vazn vujudga keladi. Demak, bir xil birliklarning guruhlanishi va davriy takrorlanishi she'riy ritmning asosini tashkil etadi. Hozirga qadar she'riy ritmning kelib chiqishi turlicha izohlanadi. Ba'zi hollarda u yoki bu ritm asosida yaratilgan she'riy asarlar o'ta darajada ta'sirchan chiqqanligi uchun shu ritm boshqa ijodkorlar uchun mezon vazifasini o'tashi mumkin. Natijada mazkur ritm asta-sekin an'anaviylik kasb etadi. Xalq dostonlaridagi she'riy parchalarning turlicha tasviriy holatlar bilan bog'liqligi yuqoridagi fikrni to'la tasdiqlaydi.

Raqs — san'at turi. Har bir xalqning raqs an'analari, ijro uslubi, plastik tasviriy vosi talari bo'lib, ular tarixiy, ijtimoiy va geografik sharoitlar ta'sirida

tarkib topib rivojlangan. Raqqos yoki raqqosaning garmonik tana harakati va holatlari, plastik ifodaviyligi va yuz imo-ishoralari, ritm, temp, kompozitsiya orqali obraz yaratish raqsning asosiy vositasidir. Insonning mehnat jarayoni va borlikdan olgan emotsional taassurotlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Dastlab qo‘shiq va so‘z bilan bog‘liq bo‘lib, keyinchalik mustaqil san‘at turiga aylangan. Raqs asrlar davomida takomillashib, barqaror shakl larga ega bo‘la borgan. Ijrochining libosi raqs obrazlariga aniqlik beradi.

Raqs xalq marosimlari, bayramlarining tarkibiy qismidir. Ular bilan bog‘liq holda marosim o‘yinlari paydo bo‘lgan. Xalq raqsida ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandlik bilan bog‘liq mavzular, shuningdek, xalqning bosqinchilarga qarshi kurashi va lirik kayfiyati o‘z aksini topgan.

Raqs musiqa bilan uzviy bog‘liq, musiqa mazmunini obrazlar vositasida ochib beradi. Xalq raqslarida ritm muhim bo‘lib, u musiqada o‘z ifodasini to padi, oyoq, ko‘l, bosh va tana harakat lari umumiy ritmga bo‘ysunadi, bir biri bilan bog‘lanadi. Turkiy xalqlar raqslari mazmunini ifodalashda ijrochilar tepki, qarsak, zangdan ham foydalanadi. Ayrim Raqslar ro‘mol, piyola, qadah, qilich, tayoq, qamchi kabi buyum bilan ijro etiladi, ba‘zan ijrochi xalq cholg‘u asboblari (qayroq, doira, nog‘ora va hokazolar)da o‘ziga o‘zi jo‘r bo‘ladi.

Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbyokiston hududida topilgan qoyatosh tasvirlari arxeologik topilmalar bu yerda raqs juda qadimiyligidan guvohlik beradi. Turkiy xalqlar raqs san‘atining qadimiyligi, shakl va turlarining boyligi ajdodlarimiz asosan dehqonchilik va hunarmandchilik bilan bog‘liq bo‘lganidan kelib chiqqan.

Savol va topshiriqlar:

1. *Folklorga xos xususiyatlar deganda nimani tushunasiz?*
2. *Folklor qorishiq san‘at ekanligini misollar bilan tahlil qiling.*
3. *Folklor namunalarining kuy, raqsga uyg‘unligi haqida so‘zlab bering.*

TO‘QQIZINCHI MAVZU XALQ TOMOSHO SAN‘ATIDA IJROCHILIK MAHORATINING NAMOYON BO‘LISHI

REja:

1. *O‘zbek xalq tomosho san‘ati mustaqil janr sifatida.*
2. *Og‘zaki drama va uning o‘ziga xos xususiyatlari.*
3. *Qiziqchilik va qo‘g‘irchoqbozlik.*
4. *Askiya janri va uning o‘ziga xos xususiyatlari.*

O'zbek xalq teatri va tomosha san'ati an'alarining o'ziga xosligi, bu folklor an'alarining kelib chiqish tarixi va rivojlanish bosqichlarining tadqiq etilishi. O'zbek xalq tomosha san'atining asosiy turlari, ijrochilari va ularning repertuari. Masxarabozlik, qiziqchilik, muqallid va askiyachilik san'ati. Og'zaki drama va kulki-hikoyalarning mavzu yo'nalishi va syujeti. Askiya janri va uning turlari. Og'zaki dramalar poetikasi, syujet va motivlar talqini. Tomosha san'atining sinkretik tabiati.

Xalq teatri an'alarining M.Qodirov tomonidan o'rganilishi. Uning asarlarida og'zaki drama, masxarabozlar va qiziqchilar repertuaridagi asarlar tahlili. R.Muhammadiyev va askiya janrning tadqiq etilishi.

Temur va temuriylar davrida tomosha san'ati. Xalq teatri an'alarining lokal tiplari va yetakchi ijodiy maktablari. Og'zaki drama va tomosha san'ati an'alarining ommaviy bayramlar hamda xalq sayillaridagi o'rni.

Og'zaki drama — xalq ijodining mustaqil turi. Uning ma'nosini xalq orasida og'zaki to'qilgan sahnaviy asarlar namoyishini anglatadi.

Og'zaki drama juda qadim zamonlarda vujudga kelgan va hozirga qadar xalq ongi axloqiy normalari, xususan, badiiy id-roki va estetik didini tarbiyalashda hal qiluvchi rol o'ynab kelgan.

Turli xil o'yin-kulgilar, dramatik holatlar, har xil qiyofaga kirishlar, monolog va dialoglar, sahna harakatlari va ovoz ohanglari og'zaki dramaning janr belgilari hisoblanadi. Binobarin, og'zaki drama o'z ichiga turli xil o'yin, to'y, bazm, marosim, sayllarni hamda ertakchi, baxshi, noqil, qissaxon va roviylarning ijrochilik san'atini qamrab olgan.

Og'zaki drama bilan folklor teatri atamaları, asosan, tomosha ko'rsatish ma'nosini anglatadi. Chunki folklor teatrini tashkil etuvchi xalq o'yinlari va xalq marosimlarining turli xil namunalarida sahna harakatlari, turli xil ovoz ohanglari, muzika tekst bilan bog'liq holda keladi. Boshqacha aytganda, og'zaki dramani namoyish etish va uning barcha vositalari folklor teatrini tashkil etadi.

Og'zaki dramaning o'ziga xos belgilaridan biri sahnada professional qiziqchi va masxarabozning qatnashuvidir. Qiziqchi va masxaraboz u yoki bu asarni biror qiyofaga kirgan holda ijro etadi.

Og'zaki drama askiyaboz, qiziqchi, masxarabozlar yashagan joylarda tashkil topgan bo'lib, satira va yumorga asoslanishi bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari, har bir asar va ijrochilar harakati kontrast asosiga quriladi. Shuning uchun ham og'zaki drama tomosha ko'rsatish bahonasida hayot qiyinchiliklari, diniy va sinfiy munosabatlarni fosh etgan, tomoshabinga ma'naviy zavq bag'ishlab kelgan.

Og'zaki dramaning g'oyaviy-tematik yo'nalishi rang-barang bo'lib, asosan, ochko'zlik, ko'zbo'yamachilik, zolimlar zulmi, adolatsizlik, zo'ravonlik, maishiy buzuvchilik, poraxo'rlikni hajv qilish, juz'iy kamchiliklarni yengil kulgi vositasida tanqid qilishdan iboratdir.

Og'zaki drama shakliga ko'ra ikkiga bo'linadi. Biri — masxaraboz va qiziqchilar teatri, ikkinchisi — qo'g'irchoq teatri.

Masxaraboz va qiziqchilar teatri. Masxaraboz va qiziqchilar teatrida hozirgi teatr tushunchasida mavjud barcha belgilar ko'zga tashlanadi. Xususan, dramaturgiya, o'ziga xos sahna, qiziqchi aktyorlar, muzika va boshqalar.

Masxara—mazaxni, masxaraboz esa muayyan tekstga asoslanib, hajviy tomosha ko'rsatuvchi kulgi ustasini anglatadi. Shuning uchun ham qiziqchi va masxaraboz xalq teatrining aktyorlari hisoblanadi. Ularning har biri hazil-mutoyiba yoki hajv yo'li bi-lan zolim boy va munofiq ruhoniylarning sir-asrorini fosh etadi.

Buxoro, Xorazm va Farg'onada masxarabozlar teatri mavjud bo'lgan. Bunday xalq teatrlari, asosan, ochiq maydon va sayllarda o'z tomoshalarini ko'rsatganlar. Masxaraboz va qiziqchilar teatrining xodimlari askiyabozlar, masxarabozlar, qiziqchilar, muallaqchi dorbozlar, nayrangbozlar, huqqibozlar, shuningdek, sozandalar, o'yinchilar va boshqalardan iborat bo'lgan. Biroq bular orasida qiziqchilar, kichik-kichik sho'x hajviy ko'rinishlarni ijro etuvchilar asosiy o'rinni egal-lagan.

Bu teatrning ikki xil shakli bo'lgan. Uning birinchi xil shaklida tomoshani ma'lum tekst (og'zaki dramaturgiya)ga asoslangan holda ikki, uch san'atkor artist ijro etadi: Ikkinchi xil namunasida esa tomosha ma'lum tekstga asoslangan holda bir aktyor ijrosida sodir bo'ladi. Teatrning bu shaklida aktyor tekstdagi ijobiy va salbiy obrazlarni bir o'zi ijro etadi. Demak, u ma'lum harakatlar bilan ikki obrazni yakka o'zi maho-rat bilan o'ynagan. Bundan tashqari, taqlidga usta aktyor turli qushlar, hayvonlar ovozi, xatti-harakati orqali ml'lum shaxslardan birining xarakteri, xulq-atvoriga taqlid qilib pantomi-malar ko'rsatgan. Bu o'rinda «Yumronqoziq», «Bedana», «Xo'roz bilan tovuq» pantomimalari xarakterlidir.

Tekstga asoslangan teatrdagi ko'proq og'zaki hikoyalar inssenirovka qilingan. Masalan: «Ulik yuvish», «Sudxo'r boy», «Namoz» kabilar sevilib ijro etilgan.

Masxarabozlar teatri bir gruppaga uyushgan holda faoliyat ko'rsatgan. Yusuf qiziq, Aka Buxor, Orifjon Toshmatov gruppalari xalq orasida ma'lum va mashhur bo'lgan. Hozirga qadar qo'qonlik Zokir eshon, Usmon qiziq, Bahrom novcha, Sa'di maxsum, Mo'min qishloqi, Xolmatmesh, Baxtiyor bo'qoq, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Sulaymon qori, Oxunjon qiziq, Isroil xo'roz, Lo'm-lo'm Mamajon, Aka Buxor Zokirov, buxorolik To'la masxara va Gadoy masxara, andijonlik Orifjon Toshmatov, Zokirjon Ovulov, Ibrohimjon Teshaboyevlar singari professi-onal qiziqchi, masxarabozlar aniqlanib, ularning repertuarlari o'rganilgan.

Og'zaki drama asarlari tematikasi va syujetning uzun-qis-qaligiga ko'ra har xil bo'lganlar. Bunday asarlarning ayrimlari asosida satira, ayrimlari asosida yumor yotadi.

Dramatik asarlar, asosan, monolog va dialoglar shaklida bo'lib, ularning ijrosida mavjud qiziqchi va masxarabozlarning ovoz ohanglari, shartli harakat va pantomimalar, qo'shiq va baytlar voqealar rivojini ta'minlaydi, ularni ajoyib san'at asariga aylantiradi.

Komediyalarda xalqning nozik, jozibali til vositalari ustun. Personajlar nutqida ko'chma ma'no anglatuvchi so'z va iboralar ko'p ishlatiladi. Ayniqsa,

«Bu beodobning eti siz-niki, suyagi bizniki», «topganini qorniga uradi», «mullalar o'likdan olmasa, qayerdan oladi» kabi jumlar yengil, kinoya-li kulgi qo'zg'ab, salbiy xususiyatni fosh etadi.

Komediyalarda voqea va hodisalar, xususan, obrazlar bir-bi-riga zid qo'yiladi. Bu priyom asar mohiyati va g'oyaviy mazmunini to'liq ochilishiga, eng muhimi, personajlar xarakterini aniq belgilashga kyong imkon yaratadi.

Qo'g'irchoq teatri. Qo'g'irchoq teatri og'zaki dramaning o'ziga xos janri hisoblanadi. Bu janr xalq hayoti, axloq normalari hamda sinfiy munosabatlarni satira va yumor vositasida to'liq namoyish qilib kelgan. Qo'g'irchoq teatri eng avvalo qiziq-chi yoki masxaraboz emas, balki yog'ochdan yasalgan turli xil qo'g'irchoqlar ishtirok etishi bilan ajralib turadi. Qo'g'irchoqlar qo'g'irchoqboz hamda korfarmonlar¹ tomonidan jonlantiriladi.

Qo'g'irchoq teatri qadimda o'z tomoshalarini sayillarda, bozorlarda, xalq yig'inlarida namoyish qilib kelgan. Xalq orasida mashhur bo'lgan «Polvon Kachal sarguzashtlari», «Tegirmonchining uylanishi», «Sarkardalar» nomli komediyalar satira va yumorga boyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu komediya tomoshabin qalbida estetik zavq, ozodlikka ishonch tuyg'ularini uyg'otgan, adolatsizlik va munofiq ruhoniylarni fosh etish vazifasini o'tagan.

Qo'g'irchoq teatrining tarixi juda uzoq tarixga borib ta-qaladi. Chunki uning paydo bo'lishi qadimiy urf-odat hamda marosimlar bilan bog'lanadi. Ayniqsa, ibtidoiy jamiyatda ki-shilarga nisbatan notabiiy ko'ringan hodisalarni ta'riflash maqsadida yasalgan ramziy shakllarga topinish kabilar qo'g'irchoqbozlikning genetik asoslari hisoblanadi. Ramziy shakllarning qo'g'irchoqboz qo'liga o'tib tanqidiy vazifa ado etishi mifologik e'tiqodlarning kuchsizlanishi va yo'q bo'lishi bilan boshlangan. Qo'g'irchoq teatrining dastlab «Chodir jamol», «Chodir xayol», «Fonus xayol» singari uch xil turi mavjud bo'lgan. Bu teatrlarning o'zaro farqi, asosan, qo'g'irchoqlar haraka-tining yuzaga kelishi bilan belgilanadi.

«Chodir jamol» teatrida qo'g'irchoqlar harakati barmoqlar vositasida yuzaga keladi, ya'ni qo'lga kiydirilgan qo'g'irchoqlar barmoqlar harakatida jonlanadi. Bu teatrdas asosan «Polvon Kachal sarguzashtlari» o'ynalgan.

«Chodir xayol» teatrida qo'g'irchoqlar harakati iplar yorda-mida amalga oshirilgan. Qo'g'irchoqlarni harakatga keltirayotgan qora iplar qora parda fonida ko'rinmaydi. tomoshabinga qo'g'irchoqlar harakati g'ayri tabiiy tuyulgan. Bu teatrdas, asosan, «Sarkardalar» komediyasi o'ynalgan.

«Fonus xayol» teatrida tomoshabinlar qo'g'irchoq va qo'l bar-moqlari yordamida turli xil shakllar soyasini tushirish orqa-li ko'rsatilgan. Mashhur qo'g'irchoqbozlar orasida toshkentlik Shofayzi (1870—1930), buxorolik Doniyor bobo (1876—1962), Xolmurod bobo (1897—1967) hamda Rajab meshkob (Buxoro), Mahmud mehtar (Samarqand), Tursunboy Abdijabborov (Toshkent) ka-bilar xalq o'rtasida e'tibor qozonib, mashhur qo'g'irchoqbozlar sifatida shuhrat topgan.

Askiya—o'zbek xalq og'zaki ijodining mustaqil janri bo'lib, asosan, to'y-tomosha, yig'inlar va saylovlarda ijro eti-ladi.

Askiya arabcha *zakiy* soʻzidan olingan boʻlib, soʻzamol, zako-vatli, oʻtkir zehnli degan maʼnolarni anglatadi. Zakiy soʻzining koʻplik shakli azkiyo boʻlib, u keyinchalik talaffuzda oʻzgarib, askiya shakliga kelib qolgan. Askiya ijrochilari askiya-boz, askiyachi deb yuritiladi.

Askiya — soʻz oʻyini, koʻchma maʼnoli soʻz va jummalarni ilgʻab olish va unga javob topa bilish, shama qilish sanʼati-dir- Askiyabozlar tarafma-taraf boʻlib olib, qochirim soʻzlar bilan askiya boshlaydilar, tinglovchilar esa u yoki bu tomonniyg soʻzga chechanligi, hozirjavobligidan mamnun boʻlib kuzatadilar. Tomonlardan biri ustun kelganda, kulgi qahqahaga aylanadi. Tinglovchi ishqibozlar oʻsha tomonni maʼqullab, chapak chalib olqishlaydilar. Askiya tortishuvida aql-idrok va hozirjavob-lik talab etiladi.

Askiya hozirjavoblar musobaqasi ekan, soʻzga chechanlik uning mahorat mezoni sanaladi. Askiya davomida askiyabozlarning zukkoligi, chandish, badihagoʻylik sanʼatiga moyilligi hal qi-luvchi vazifani ado etadi. Askiyabozning mana shu xususiyati tsrtishuvda zarur va kerakli soʻzlarni topa bilish, oʻz oʻrnida ishlatish mahoratini namoyon qiladi. Demak, askiyachi soʻzga chechan, zukko boʻlishi shart.

Askiya kompozitsiyasi tugallangan ikki fikrning bir-biriga qarshi qoʻyilishidan tashkil topadi. Har bir fikr oʻziga xos tugun va yechimga ega. Qarshi qoʻyilgan fikrlar oʻzaro bir-biri-ni inkor etishi yoki tasdiqlashi, kuchaytirishi lozim. Ana shu fikrlar asosida satira va yumor mavjud. Demak, har bir askiya payrovida ikki xil kulgi mavjud. Satirik kulgi ramziy yoki koʻchma maʼnoda aytilgan soʻz yoki ibora asosida yuzaga keladi. Chunki,askiyachilardan biri misolida yaramas illatlar ochiladi va zaharxanda kulgi koʻtariladi. Kulgining ikkinchi xilida askiyachilardan biri noqulay holatga tushib qoladi.

Askiyaning turlari juda koʻp. Shulardan anʼanaga aylangan turi payrov deb ataladi. Uning ikkinchi xili kichik, ixcham-lashgan savol-javob shakliga ega. Bu turga «Boʻlasizmi», «Ux-shatdim», «Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz» kabilar kiradi. Askiyaning bu xili nisbatan dastlabki tur sanaladi. Uning uchinchi xiliga esa «Tutal», «Rabbiya» shakllari kiradi. Askiyaning bu xil turlari asosan toʻy va sayillarda, bayramlarda, gap-gashtak va choyxonalarda ijro etiladi.

Askiyaning payrov turi muayyan tema atrofida ijro etiladi. Payrovda askiyabozning «raqib»iga aytgan soʻz va jumlasini koʻchma maʼno kasb etishi shart. Bundan tashqari, u istiora, oʻx-shatish, sifatlash kabi badiiy tasvir vositalari, tanosib, tajnis, mubolagʻa singari ifoda vositalaridan keng foydalanishi kerak. Askiya payrovlarida askiyabozdan qarshi tomonning, javob qaytarayotgan askiyabozning koʻrinishi, xarak-terli qiliqlariga mos laqabni topa bilish talab etiladi. Payrov davomida soʻz yoki jumla orasiga qistirib yuborilgan laqab, soʻz oʻyini yoki lutf orqali qarshi taoaf — askiyabozning portretiga shama qilinadi. Bunga javob qaytaruvchi askiyachi undan kuchliroq hajv qilishga urinadi. Hazil-mutoyiba nafosat doirasidan chetga chiqmaydi. Meva, parranda, dehqon-chilik, paxta, ashula, kino, teatr nomlari. chorvachilik, imo-rat qurish, fasllar, kitoblar temasida payrovlar aytish anʼanaga aylangan. Shulardan ashula payrovi shunday boshlanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. *Xalq tomosho san'atining turlari haqida so'zlab bering.*
2. *Hududga xos og'zaki drama namunalariga misollar keltiring.*
3. *Askiya janriga xos belgilarni ko'rsating.*
4. *O'zbek xalq tomosho san'ati qaysi olimlar tomonidan o'rganilgan?*

O'NINCHI MAVZU FOLKLOR IJROCHILIK SAN'ATINING BUGUNGI HOLATI

Reja:

1. *Folklor va postfolklor tushunchalari.*
2. *Postfolklarning o'ziga xos xususiyatlari.*
3. *Folklor va ommaviy madaniyat.*

Postfolklor lug'aviy ma'noda folklordan keyin degan ma'nonai anglatadi. Biroq postfolklor hodisasi folklarning bugungi holatini, bugungi jarayonini anglatadi. Postfolklor atamasini [Sergey Yuryevich Neklyudov](#) tomonidan 1995 yilda kiritilgan. Postfolklor nimaligini anglash uchun eng avvola folklorga xos bo'lgan xususiyatlarni anglab olish joiz. Bular:

1. An'anaviylik. 2. Jamoaviylik. 3. Vaariantlilik.

Postfolklor har uchala jarayonga u yoki bu darajada rioya etmaslik, undan chekinishni bildiradi. Misol uchun an'anaviylik postfolklorda bir muncha farqli kechadi.

Jamoaviylikdan ko'ra individual xususiyatlar ustunlik qila boshlaydi.

Variantlilik hodisasi sekinlashadi. Yoki uning buzilishi hodisasi yuzaga keladi. YA'ni ijrochi endi ustoz shogirdchilik an'analari bilan emas, kitob, radio, televideniya va boshqa tarmoqlar orqali o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Postfolklorga xos jarayonlar har janrda o'ziga xos tarzda kechayotganini, birida sekin, ikkinchisida tezrok yuz berayotganini ko'ramiz.

Har bir hududga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ayrim hududlarda tezroq, ayrim hududlarda sekinrok yuz berishi mumkin.

Variantlilik hodisasi har bir folklor janrida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Qo'shiqlardagi variantlilik, ertak yoki dostondagi variantlilikdan tubdan farq qiladi. Badiiy jamoalar faoliyatida folklor namunalarining variantlaridan foydalanayotganda, birinchi galda qaysi janr namunasi va qanday maqsadda undan foydalanish ko'zda tutilganlanligini inobatga olish zarur bo'ladi. Albatta bu o'rinda folklor asarlarining variantlilik borasidagi ilmiy qarashlardan yetarli darajada xabarborlikni talab etadi.

Folklor namunalaridagi variantlilik hodisasini biz epik janrlarda, jummladan, dostonlarda yanada yaqqalroq namoyon bo'lishini kuzatamiz.

Versiya (lotincha versio — shakl, ko'ri-nish) — xalq og'zaki ijodida syujeti va janri bir xil, biroq syujet turli o'zgarishlarga uchragan, kompozitsiyasi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari jihatdan keskin farq qiluvchi xalq og'zaki ijodi namunalari. Masalan, «Alpomish» dostoni o'zbek, qoraqalpoq va qozoq

Versiyalarida keng tarqalgan. Bular ham o'z variantlarilariga ega. «Go'ro'g'li» dostoni ham xuddi shunday. «Go'ro'g'li» dostonining o'zbek, turkman, ozarayjon, turk, uyg'ur va boshqa versiyalari mavjud. Ayni paytda bu versiyalarning ko'plab variantlari mavjud. Jumladan «Go'ro'g'li» dostoni o'zbeklarda yuzga yaqin dostonni o'z ichiga olib, ko'plab variantlarga ega. Bundan ko'rinib turibdiki, variantga nisbatan Versiya tushunchasi keng bo'lib, u variantlarni ham o'z ichiga oladi, variantlarda ifodalangan g'oyalar, badiiy-tasviriy vositalar majmuidan iborat bo'ladi.

Ma'lumki, variant yoki variantlilik folklorshunoslikning tub nazariy masalalaridan biri bo'lib, xalq og'zaki ijodining tabiatini namoyon etuvchi kollektivlik, og'zakilik, an'anaviylik, anonimlik kabi asosiy xususiyatlar qatorida turadi. "Xalq dostonlarida variantlilik traditsiya va improvizatsiya bilan, folklor tekstidagi barqarorlik va o'zgaruvchanlik bilan mahkam bog'liqdir. Variantlilik folklor tabiati, uning estetikasi, yaratilish va jonli og'zaki ijroda yashash qonuniyatlari hamda funksiyasidan kelib chiqqan xususiyatdir. U folklorning hamma tomonlari va elementlari, syujeti, obrazlilik, stilistikasi, umuman poetikasi va janr xususiyatlarini qamrab oluvchi universal belgidir.¹⁰"

O'zbek folklorshunosligida xalq og'zaki ijodining asosiy xususiyatlaridan biri bo'lmish variantlilik masalasiga amaliy va nazariy jihatdan yetarli darajada e'tibor qaratilgan deb aytishga to'liq asosimiz bor. Bu jabhada hozirga qadar amalga oshirilgan ilmiy-nazariy, amaliy ishlar fikrimizni tasdiq etadi. Mavjud ishlarni jamlab, saralab, tasnif etilsa, folklorshunosligimizning variantlilik masalasini o'rganishda erishgan yutuqlarini quyidagi shaklda ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, folklor namunalarini ilmiy, ommaviy nashr etishda variantlilikka bo'lgan munosabat.

Ikkinchidan, variantlilik masalasining nazariy jihatdan tadqiq etilishi.

Uchinchidan, ma'lum bir asar variantlarini ilmiy qiyosiy o'rganish.

Folklor namunalarini ilmiy, ommaviy nashr etishda variantlilikka bo'lgan munosabat.

O'zbek folklorshunosligida variantlilik masalasiga xalq og'zaki asarlarini ilmiy jihatdan muntazam ravishda yozib olish, to'plash, nashr qilish va tadqiq etishga kirishilgan XX asrning 20-30 – yillaridan boshlab diqqat qaratilgan. Bu jihatga, ayniqsa, folklor namunalarining nashri jarayonida alohida e'tibor berildi. Chunki ko'plab variantlar orasidan har tomonlama mukammal namunani ajratib xalqqa qayta taqdim etish, nashrga tayyorlovchidan katta bilim va malaka talab etar edi. Bu o'rinda variantlilik yuzasidan bevosita nazariy ishlar amalga oshirilgan bo'lmasa-da, juda ko'p amaliy tajribalar to'plandi. Ushbu tajribalar keyingi ilmiy, nazariy tadqiqotlarga zamin hozirladi. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Muhammadqul Jonmurod o'g'li- Po'ltan, Islom Nazar o'g'li, Rahmatulla Yusuf o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li va boshqa ko'plab xalq baxshilaridan yozib olingan dostonlar, ko'plab ertak

¹⁰ Мирзаев Т. Халф бахшиларининг эпик репертуари. - Т.: Фан, 1979. - 71-б.

va afsonalar, maqollar va boshqa chop qilingan namunalar ana shu amaliy bilimlarning mevasi o'laroq kitob shakliga kirdi.

O'zbek folklorshunosligida variantlilik masalasiga xalq og'zaki asarlarini ilmiy jihatdan muntazam ravishda yozib olish, to'plash, nashr qilish va tadqiq etishga kirishilgan XX asrning 20-30 – yillaridan boshlab diqqat qaratilgan. Bu jihatga, ayniqsa, folklor namunalarining nashri jarayonida alohida e'tibor berildi. Chunki ko'plab variantlar orasidan har tomonlama mukammal namunani ajratib xalqqa qayta taqdim etish, nashrga tayyorlovchidan katta bilim va malaka talab etar edi. Bu o'rinda variantlilik yuzasidan bevosita nazariy ishlar amalga oshirilgan bo'lmasa-da, juda ko'p amaliy tajribalar to'plandi. Ushbu tajribalar keyingi ilmiy, nazariy tadqiqotlarga zamin hozirladi. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Muhammadqul Jonmurod o'g'li- Po'ltan, Islom Nazar o'g'li, Rahmatulla Yusuf o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li va boshqa ko'plab xalq baxshilaridan yozib olingan dostonlar, ko'plab ertak va afsonalar, maqollar va boshqa chop qilingan namunalar ana shu amaliy bilimlarning mevasi o'laroq kitob shakliga kirdi.

Xalq dostonlaridagi variantlilikni o'rganish jarayonida yig'ma matnlar tuzishga bo'lgan urinishlarni ham alohida ko'rsatib o'tish talab etiladi. Xususan, H. Zarifov "Kuntug'mish"ning Ergash shoir va Nurman Abduvov o'g'li variantlari asosida yig'ma matn tuzib nashr qilgan("Kuntug'mish", Toshkent, 1955). Ushbu nashr taqdiri haqida T.Mirzayev shunday yozadi: "Bu nashr muvaffaqiyat qozona olmadi. O'zbek folklorshunosligida xalq eposi namunalarini ayrim olingan eng yaxshi variantlar asosida nashr etish prinsiplari birdan-bir to'g'ri yo'l sifatida batamom o'zlashdi va hozirgi kunga qadar eposning eng yaxshi namunalari yetakchi baxshilar variantlarida nashr etib kelinmoqda. Ilmiy nuqtai nazardan u yoki bu dostonning mukammal baxshi varianti bo'lmagan taqdirdagina nashr uchun uning yig'ma nusxasi tuziladi. "Yozi bilan Zebo" dostonini tayyorlashda shunday yo'l tutilgan"

Demak, o'zbek folklorshunosligining ko'p yillik tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, eposning mukammal, yetakchi baxshi variantini nashr etishga birlamchi o'rinda qaralmoqda.

Z.Husainova tomonidan 1956 yil nashr qilingan "Oshiq G'arib va Shoxsanam" dostoni ham o'ziga xos yig'ma matn hisoblanadi. Ayni asarning bu choqqacha boshqa mukammal varianti chop etilmaganligi sababli ushbu namuna hozircha asosiy manba bo'lib turibdi.

O.Sobirov tuzgan "Yozi bilan Zebo" yig'ma variant hamda uning nashri haqidagi folklorshunoslikda aytilgan so'nggi fikr sifatida tadqiqotchi D.Xalilovning "Yozi bilan Zebo" dostonining variantlari va badiiyati" deb nomlangan nomzodlik ishidagi munosabatni keltirish mumkin. Dissertant avvalo jahon folklorshunosligida biror bir asarga yangicha adabiy umr bag'ishlash hollari mavjudligi haqida to'xtalib, XV asrda noma'lum ijodkor tomonidan "Kitobi Dadam Qo'rqu" dostoni va undagi o'n ikki qo'shiqni bizga noma'lum o'zonlardan yozib olib, qayta ishlash asosida keyingi avlodlarga meros qilib qoldirgan. Bir so'z bilan aytganda, doston yig'ma

nashr jarayonlarni boshidan kechirgan bo‘lishi kerak», - degan o‘ta qiziqarli farazni ilgari suradi. Tadqiqotchi folklorshunos O.Sobirov tomonidan yig‘ma varianti tuzilgan va XX asrning 60-yillari boshlarida nashr etilgan “Yozi bilan Zebo” dostoniga ham shu nuqtai nazardan baho beradi. «Avvalo shuni aytish kerakki, bunday nashr o‘zbek folklorshunosligida dastlabki tajriba edi va bu tajriba o‘sha davr folklorshunosligi uchun muhim voqea bo‘ldi hamda u ma’lum darajada o‘zini oqladi. O. Sobirov tuzgan yig‘ma variant o‘zining ikki-uch nashri orqali madaniy hayotimizga chuqur singib keta oldi. Uning ilmiy-amaliy ahamiyati ham ana shundadir», - deb yozadi. Ayni paytda, D.Xalilova ushbu yig‘ma variantning bir qator kamchiliklarini ham keltirib o‘tadiki, ushbu holatlar bu yo‘nalishda ancha izlanishlar olib borish lozimligini ko‘rsatadi.

Yig‘ma matnlar tajribalari ham variantlarni tadqiq etishning o‘ziga xos usuli ekanligini yuqorida keltirilgan faktik materiallar, fikr va mulohazalar ham tasdiqlamoqda. Yig‘ma matnlar tajribasi hali o‘zini to‘la oqlamagan bo‘lsa-da, bu sohadagi ishlar to‘xtab qolmasligi kerak. Aksincha, yig‘ma matn har bir asarning mavjud barcha versiya va variantlari atroflicha o‘rganilib chiqilgach, ulardagi badiiy yetuk, ko‘hna talqinlarga ega motivlar tayanch variant asosiga qamralib, yagona uslubga keltirilsa, ehtimol bizgacha to‘liq yetib kelmagan dostonlarning nisbatan mukammal variantini yaratish imkoni tug‘ilar. Bu o‘rinda “Kitobi Dadam Qo‘rqut” tajribasi asqotishi mumkin.

Variantlilik masalasining nazariy jihatdan tadqiq etilishi.

O‘zbek folklorshunosligida variantlilikni nazariy jihatdan yoritgan asosiy tadqiqot sifatida T. Mirzayevning “Alpomish dostonining o‘zbek variantlari” hamda “Xalq baxshilarining epik repertuari” monografiyalarining variant va versiyaga bag‘ishlangan qismlarini keltirish mumkin. Folklorshunos M.Saidovning ham “O‘zbek dostonchiligida badiiy mahorat” deb nomlangan kitobida ushbu masalaga o‘z mavzusi qamrovida to‘xtalganligini qayd etish lozim.

T.Mirzayev, avvalo, variant nima degan savolga javob berib, uning “folklor ijodiy jarayoniga xos barqarorlik va takroriylik, kanoniklik va o‘zgaruvchanlik u yoki fikrni turlicha ifodalashga keng imkoniyatlar...” yaratishiga e‘tibor qaratadi. Variantlarning yuzaga kelishining subyektiv va obyektiv omillari haqida to‘xtaladi va bu o‘rinda subyektiv sabablar bevosita folklor ijrochisining dunyoqarashi va mahorati, uning ijodchi va ijrochiligi, an‘anaga bo‘lgan munosabati va baji hago‘yligi, “ijodkorlik shaxsi” bilan chambarchas bog‘liq ekanligini aytadi. Bu holatlar esa turli ijodiy variantlarda yetib kelgan har bir folklor asari og‘zaki ijod an‘anasining teng huquqli namunasi hisoblanishini ta’kidlaydi. «Bu masalada estetika prinsiplaridan kelib chiqib, oddiy ijrochi varianti bilan badi hago‘y dostonchi variantini bir-biridan farq qilish kerak bo‘ladi.”

Ayni paytda, muallif variantlarning paydo bo‘lishida obyektiv sabab avvalo xalq og‘zaki poetik ijodining tabiatida turganligini ko‘rsatsa, ikkinchi sababni tarixiy voqelik bilan izohlaydi va “Folklorda variantlarning yuzaga

kelishidagi obyektiv sabab birinchi planda turadi, chunki variantlilikning mohiyati ham ana shu orqali tushuntiriladi”, - deb yozadi.

“Kuntug‘mish” dostonining variantlari o‘zaro qiyoslansa, yuqorida ko‘rsatilgan har ikki sabab natijasi o‘laroq paydo bo‘lgan namunalarni ko‘ramiz. Xususan, Ergash shoir variantini Qo‘rg‘on dostonchilik maktabining yana bir vakili Alim Haqqulov hamda Sherobod dostonchilik maktabining talantli vakili Qodir Rahimov va Xorazm dostonchiligi ning namoyandasi Ro‘zimbek Murodovlar variantlariga solishtirib ko‘rilsa, variantlarning paydo bo‘lishi subyektiv sababining o‘ziga xos ayricha ko‘rinishlari ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi.

Xalq og‘zaki poetik ijodining tabiatiga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlarning variantlarning yuzaga kelishidagi muhim o‘rnini ta’kidlar ekan, T.Mirzayev shunday yozadi: “...xalq og‘zaki poetik ijodi namunalarining yaratilish protsessining kollektivlik xarakteriga ega bo‘lishi, ularning og‘zaki ijro etilishi va keng tarqalishi (ayrim hollarda yozma ravishda ham tarqaladi), ommaviylik tusini olishi, ularga nisbatan tarixiy voqelikning ta’siri hamda aytuvchining aktiv ijodiy munosabati—qisqasi, obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar yoki bu traditsion tekstga jonli og‘zaki traditsiyada bir qancha versiya va variatsiyalarda yashash huquqini beradi”

Folklorning o‘ziga xos murakkab ijodiy jarayonlarda paydo bo‘luvchi variantlilik hodisasiga xos asosiy belgilar “Kuntug‘mish” dostoni variantlari misolida ham namoyon bo‘ladi. Ushbu variantlar tadqiqi esa nafaqat “Kuntug‘mish” dostoni, balki butun epik ijoddagi variantlilik hodisasini teran anglab, uning tub mohiyatlariga yetish imkonini tug‘diradi.

Mustaqillik davrida folklor tamomila yangicha mazmun va mohiyat kashf etdi. «Xalq baxshisi» unvonining joriy etilishi bu folklor san’atiga e’tibor davlat miqyosi darajasida ekanini ko‘rsatadi. Folklor san’atiga bag‘ishlangan ko‘plab anjuman, festivallarning bo‘lib o‘tishi bu san’atning ma’naviy hayotimizda o‘rni balandligidan dalolat beradi. Biroq shunday bo‘lsada, butun dunyoga xos bo‘lgan variantlarda sekilashish, buzilish jarayonlari, ustoz-shogirdchilik an’analarga rioya etmaslik, an’adan chekinish va ich ovozning yo‘qolib borishi kabi xususiyatlar bu san’atni ham o‘z komiga tortib bormoqda. Ayniqsa ommaviy madaniyat bu san’atga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Bunday vaziyatda esa folklor san’atini ko‘proq targ‘ib qilish, o‘rganish, tadqiq etish samarali natija beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Postfolklor tushunchasiga izoh bering.
2. Folklor va postfolklorning farqli jihatlari haqida so‘zlab bering.
3. An’ana va variyatlilik borasidagi fikrlaringizni bayon eting.
4. Folklor va ommaviy madaniyat borasida so‘zlab bering.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -Toshkent, «Ma'naviyat» nashriyoti. 2008 yil. 176 b.
2. Regina F Bendex and Galit Hasan- Rokem. A Companions to Folklore. – Oxford;Blackwell Publishing, 2012 (UK).– 531 p.
3. **Journal of American Folklore** . <http://afsnet.org>
4. **Journal of Folklore Research** (Indiana University) <http://www.indiana.edu/~jojr/home.html>
5. **New York Folklore**. <http://www.nyfolklore.org/>
6. **Zeitschrift fur Volkskunde**. <http://www.waxmann.com/zs/zsfv.html>
7. **Slavic and East European Folklore Association** <http://www.virginia.edu/~slavic/seefa>
8. Monaghan Patricia. Encyclopedia of Celtic mythology and folklore.– New York, 2004. -512 p.
9. Abdullayev H. Xalq dostonlarining variantlari. -T.: Fan, 1990. -164 b.
10. Akramov G'. Mifologiyaning ayrim epik janrlar bilan munosabati// O'zbek folklorining epik janrlari. -T.: Fan, 1981. - B. 149-157.
11. Alaviya M. O'zbek xalq qo'shiqlari. -T.: Fan, 1959. -314 b.
12. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. -T.: Fan, 1974. -222 b
13. «Alpomish», doston. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li, nashrga tayyorlovchilar H.Zarifov, T.Mirzayev. -T.: Sharq, 1999. -398 b.
14. 12. «Alpomish» –o'zbek xalq qahramonlik eposi. –T.: Fan, 1999. –180 b.
15. Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. –T.: Fan, 1964. –121 b.
16. Ashurov T. O'zbek xalq dostonlarida satira va yumor. -T.: Fan, 1974.-56 b.
17. Bozorov A. Baxshi ijodining ayrim qirralari. – T.: Fan, 1991. - 56 b.
18. Go'ro'g'lining tug'ilishi. Doston. Aytuvchi Muhammadqul Po'ltan o'g'li, nashrga tayyorlovchi M.Murodov. -T., 1967. -322 b.
19. Yormatov I. O'zbek xalq qahramonlik eposi badiiyati.-T.: Fan, 1994. -262 b.
20. Jalolov G'. O'zbek xalq ertaklari poetikasi. -T.: Fan, 1976. 156 b.
21. Jalolov G'. O'zbek folklorida janrlararo munosabat. -T.: Fan, 1979. - 180 b.
22. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.T. Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos. - M.:GIXL, 1947. -309 s.
23. Jo'rayev M. O'zbek xalq ertaklarida «sehrli» raqamlar. -T.: Fan, 1991. – 176 b.
24. 44. Jo'rayev M. O'zbek xalq samoviy afsonalari. -T.: Fan, 1995.-108 b.
25. Jo'rayev M. O'zbek xalq nasri janrlarini tasnif qilish mezonlari// O'zbek tili va adabiyoti. -1996. -№ 5. –B.28-34.
26. Jo'rayev M., Shomusarov SH. O'zbek mifologiyasi va arab folklori. -T.: Fan, 2001. -135 b.
27. Jumanazarov U. O'zbek folklori va tarixiy voqelik. -T.: Fan, 1991.-144 b.
28. Imomov K. O'zbek xalq prozasi. -T.: Fan, 1981. -103 b.
29. Madayev O. «Alpomish» bilan suhbat. -T.: Ma'naviyat, 1999.-73 b.

30. Mirzayeva S. Romanik dostonlar poetikasini o'rganishga doir // O'zbek tili va adabiyoti. -1998. -№ 6. -B. 34-37.
31. Mirzayev T. Alpomish dostonining o'zbek variantlari. -T.: Fan, 1968. -168 b.
32. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. -T.: Fan, 1979. -150 b.
33. Mirzayev T. Dostonlar gultoji//Alpomish. Doston, Fozil shoir varianti. -T.: Sharq, 1998. -B. 7-12.
34. Mirzayev T. «Alpomish» dostoni uning versiya va variantlari // «Alpomish» - o'zbek xalq qahramonlik eposi. -T.: Fan, 1999. -B. 3-21.
35. Murodov M., Ergashev A. Alpomishnoma. Surxondaryo talqini. -T.: Mehnat, 1999. -485 b.
36. Murodov M., Ergashev A. Alpomishnoma. Qashqadaryo talqini. -T.: Mehnat, 2000. -564 b.
37. Musoqulov A. O'zbek xalq qo'shiqlarining tarixiy asoslari. -T.: Fan, 1994. -165 b.
38. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. -T.: Fan, 1986. -213 b.
39. Turdimov SH. «Go'ro'g'li» dostoni genezisi va tadrijiy bosqislari. – Toshkent: Fan, 2011. 220 b.
40. Turdimov SH. Etnos va epos. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. 120 b.
41. Ergashev A., Xalilova D. «Yozi bilan Zebo» - ishq dostoni. -Qarshi: Nasaf, 2000. -68 b.
42. Eshonqul J. Folklor: obraz va talqin. –Qarshi: Nasaf, 1999. 176 b.
43. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. –Toshkent: Fan, 2006. –120 b.
44. Eshonqul J. O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. –Toshkent: Fan, 2012 y. -320 b.
45. O'zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musaqulov,
46. B. Sarimsoqov; Mas'ul muharrir: SH. Turdimov. – T.: Sharq, 2003. –214 b.